

VOLUME 1 ISSUE 5

"CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023"

zenodo



OUR FIELDS

- Exact Sciences
- Natural sciences
- Medical sciences
- Technical sciences
- Economics
- Philological sciences
- Pedagogical sciences
- Social and humanitarian sciences
- Psychological sciences
- Arts and cultural sciences
- Physical education and sports



+998 (88) 808-21-07



<http://universalpublishings.com>



"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" MCHJ

"CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH 2023"



+998 (88) 808-21-07

<http://universalpublishings.com>

VOLUME 1, ISSUE 5



«Conference on Universal Science Research 2023» ilmiy konferensiyasi:

31.05.2023 yil.

Ushbu to'plamda «Conference on Universal Science Research 2023» ilmiy konferensiyasi 2023 yil 1-soni 5-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib:

Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Nashrga tayyorlovchi:

Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrasini dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.



Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdulkarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)



UZLUKSIZ MUSIQIY TA'LIM TIZIMI ILMIY VA PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Shukurova Nilufar G'ayratovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti
"Musiqqa madaniyati" fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada uzluksiz musiqa ta'limi tizimini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi, uning muammolari va qarama-qarshiliklari taxlil qilinadi. Maqolada mavjud bo'lgan ilmiy-nazariy va uslubiy materiallar va xulosalar ushbu tizimning samaradorligini oshirishga imkom beradi.

Kalit so'zlar. Uzluksiz musiqiy ta'lim tizimi, takomillashtirish, maqsadlar, muammolar, qarama-qarshiliklar, tamoyillar, insonparvarlashtirish.

Jamiyatni rivojlantirish jarayoni to'plangan bilimlarni olish, uzatib borish va saqlashni talab etadi. O'zbekiston ta'lim tizimi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, va madaniy hayotda shakllanganlarni aks ettiradi va jamiyat rivojidadagi strategik yo'nalishlardan biri bo'lgan xolda istiqbolini belgilaydi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar butun ta'lim tizimini, shu bilan birga uning elementlaridan biri bo'lgan yangi bilimlarni izlash, yangi maqsadlar, qadriyatlar, va professional pedagogik faoliyatni shakllantirish kabi fan funksiyalaridan birini o'ziga olgan uzluksiz musiqiy ta'lim tizimini ham qayta ko'rib chiqilishiga olib keldi.

Ijtimoiy hayotni axborotlashtirish, yangi iqtisodiy mexanizmlarning shakllanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, yangi ta'lim tizimining yuksalishi uchun g'oya va konsepsiyalarni amalga oshirishdagi imkoniyatlarni belgilab berdi. Insoniyat sivilizatsiyasining rivojidadagi umumiy tendensiyalar, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi ehtiyojlar bilan shartlangan uzluksizlik O'zbekiston ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq ushbu tizim rivojidadagi sezilarli yutuqlar zamonaviy dunyodagi ta'lim sohasi xolatini to'liq aks ettirmaydi.

Dunyo pedagogikasida uzluksiz ta'lim tushunchasi "davomiy ta'lim" (continuing education, continuous education), "umrbod ta'lim" (lifelong education), "umrbod o'qitish" (lifelong learning), "doimiy ta'lim" (permanent education, 'education permanente) kabi bir qancha atamalar bilan ifodalanadi. [1]. Uzluksizlik zamonaviy ta'limning asosiy tamoyili sifatida jamiyat manfaatlarini qondirish va odamlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam berishga asoslanishi kerak. Uzluksiz ta'lim modellarida odatda inson hayotining barcha bosqichlarida ta'lim olishni davom

ettirish imkoniyatiga urg'u beriladi. Uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim jarayonining har bir bosqichi o'z mazmun mohiyati, metodlari va ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari bilan ajralib turadi. Uning ta'lim darajalaridan o'ziga xos farqi uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik bazani rivojlantirishning asosiy nuqtasi bo'lgan insonning bir bosqichni o'zlashtirmasdan turib ikkinchi bosqichga o'ta olmasligi hisoblanadi. Har bir bosqich yaxlit tugallangan ta'limdir va o'z ichida gorizontal va vertikal aloqalarni oladi. Uzluksiz ta'lim tizimining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: - ta'lim oluvchining shaxsiga qaratilganlikdan, yaxlitlikdan va fundamentallikdan iborat ta'limning yangi paradigmasini amalga oshirish; - sezilarli diversifikatsiya va intellektual mehnat bozori konyukturasiga javob berish; - bitiruvchilarning bilim darajasini oshirish; - "ta'lim yo'li"ni tanlash erkinligi; - o'rta umumiy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan samarali integratsiya qilish imkoniyati; - diplomga ega bo'lgandan keyingi keng imkoniyatlar; - jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuv imkoniyati va x.z.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, uzluksiz ta'lim tizimi quyidagilarga imkon beradi: turli ta'limiy va kasbiy dasturlarni tanlash va shu orqali shaxsning ijodiy salohiyatini yanada to'liqroq ro'yobga chiqarishga hissa qo'shish; - ta'limni ijtimoiy jarayonlarga javob bera oladigan, moslashuvchan, o'zgaruvchan qilish; - mutaxassislar tayyorlashning mahalliy tizimini xalqaro standartlarga imkon qadar yaqinlashtirish, diplomlarning ekvivalentligini ta'minlash. Yuqoridagi afzalliklar zamonaviy sharoitda musiqa ta'limi tizimida ham uzluksiz ta'lim tuzilmasidan foydalanish mumkin degan fikrga asos beradi. Musiqa pedagogikasi umumiy pedagogikaning bir qismi hisoblanadi, shuning uchun ham umumiy ta'limdagi barcha salbiy tendentsiyalar uzluksiz musiqa ta'limi tizimini ishlab chiqish nazariyasiga ham, amaliyotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Uzluksiz musiqiy ta'lim tizimining samaradorligi ko'p jihatdan iste'molchilarning ehtiyojlarini modellashtirishga bog'liq, chunki shaxsning umumiy madaniy va kasbiy o'sishi bilan yetarlicha bog'liq bo'lmagan ma'lumotlar unchalik muhim bo'lmaganligi sababli samarasiz bo'lib chiqadi. Ushbu yondashuv bizga umrbod musiqa ta'limini rejalashtirish va tashkil etish tamoyilini zamonaviy amaliyot manfaatlarini, inson faoliyatining ayrim sohalarini rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollarni hisobga olish printsipi sifatida belgilashga imkon beradi. Tizimning har bir darajasi boshqalaridan ajratilgan holda ko'rib chiqilishi mumkin emas. Uzluksiz musiqiy ta'lim tizimining elementlari umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning barchasi namunaviy o'quv dasturlari asosida o'quvchilarni mehnat va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning yagona muammosini hal



qiladi, shu bilan birga o'quv materialini tuzish va tanlash bilan bog'liq muammolarni hal qiladi.

Uzluksiz musiqiy ta'lim tizimi mutaxassisi – keng umumiy va maxsus bilimlarga ega bo'lgan, muqarrar joriy etiladigan yangi texnologiyalar talablariga javob beradigan texnika va fan o'zgarishlariga tez javob bera oladigan shaxs; unga asosiy bilim, muammoli, analitik fikrlash, ijtimoiy-psixologik kompetentsiya, intellektual madaniyat kerak.

Uzluksiz musiqiy ta'lim tizimining vazifalari moslashuvchan va ko'p qirrali ilmiy tafakkurni, voqelikni idrok etishning turli usullarini tarbiyalash uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlash, insonning butun hayoti davomida o'zini o'zi rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ichki ehtiyojni yaratishdir. [3].

Uzluksiz musiqiy ta'limning maqsadi shaxsni rivojlantirish bo'lib, uzluksiz musiqiy ta'limning o'zi esa ma'naviy dunyoni kengaytirish, o'z o'zini anglash, ma'naviy ehtiyoj va talablarni qondirish, musiqiy moyillik va qobiliyatlarni ochish hamda rivojlantirish jarayonlarining yaxlit majmuasi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Uzluksiz musiqiy ta'lim tizimi faoliyatining tahlili shuni ko'rsatdiki, o'ziga xos ijobiy tomonlariga qaramay, u mukammal emas va bu tizimning tuzilishi va mazmunida bir qator muammolarni ochib beradi. Zamonaviy sharoitda uzluksiz musiqa ta'limining hozirgi faoliyat yuritayotgan tizimining ilmiy-nazariy va amaliy tahlili shuni ko'rsatdiki, u umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, uning uchun yagona faoliyat maqsadi mavjud emas. Bu muammolarning uyg'unligi uning nomukammalligini ko'rsatadi va bu pedagogik tizimni yuqori sifat darajasiga o'tishni talab qiladi. Shunday qilib, umuman uzluksiz ta'lim tizimini va xususan, uzluksiz musiqa ta'limi tizimini tahlil qilish bu tizim uchun barcha murakkab tizimning xususiyatlari xos ekanligini ko'rsatadi. Bu yig'indiviy tizim bo'lib, quyi tizimlarning har biri uzviy bog'liq bo'lib, kasbiy faoliyatga tayyorlikni shakllantirishga bo'ysunadigan maqsadli aloqalardir. Bizningcha ushbu tizim faoliyatining samaradorligini oshirish madaniy va madaniy yondashuvlar, uzluksiz musiqiy ta'lim kontseptsiyasi, fan ta'limi bosqichlarining uzluksizligi muammolarini hal qilish kabi istiqbolli pedagogik tendensiyalar kontekstida ko'rib chiqilishi kerak, deb hisoblaymiz. Ushbu yondashuv uzluksiz musiqiy ta'lim tizimini takomillashtirish yo'llarini aniqlash imkonini beradi, bu tizim faoliyatining samaradorligiga hissa qo'shadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) axborot jamiyatiga qo'shilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lish va yangilash uchun ta'limdan umumiy uzluksiz foydalanishni kafolatlaydigan barcha uchun asosiy bilim va ko'nikmalar; 2) uzluksiz musiqa ta'limi tizimining ustuvorligini oshirish va o'rganish motivatsiyasini oshirish uchun kadrlar resurslariga

investitsiyalarni ko'paytirish; 3) uzluksiz musiqiy ta'lim tizimida shaxsiy motivatsiya, tanqidiy fikrlash va bilim olish qobiliyati ustuvorligini shakllantirish uchun innovatsion o'qitish usullarini ishlab chiqish; 4) uzluksiz musiqiy ta'lim tizimida ta'lim faoliyati va ularning natijalarini tushunish va tan olishga yondashuvlarni o'zgartirish uchun olingan ta'limni baholashning yangi tizimini ishlab chiqish; 5) ta'lim imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlardan, zarur maslahatlar va tavsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash uchun ustoz shogird tizimi va maslahatlar berishni rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Российская педагогическая энциклопедия: в 2 т. / гл. ред. В.В. Давыдов. М., 1998.
2. Непрерывное образование как педагогическая система: сб. науч. тр. / под ред. Н.Н. Нечаева. М., 1989.
3. Мангер Т.Э. Совершенствование системы непрерывной подготовки специалистов культуры и искусства в многоуровневом вузе. Тамбов, 2006.
4. Панжиев, К. Б. (2017). Узбекские семейные песни и формы их бытования (на материале алла и Бешик туй). Молодой ученый, (48), 320-323.
5. Berdievich, P. Q. (2022). Uzbek Seasonal Ceremony. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 243-245.
6. Ibroximjonova, G. A. (2018). CHILDREN'S MUSIC AS A PART OF MUSICAL CULTURE. Экономика и социум, (9 (52)), 20-22.
7. 9. Shukurova, N. G. (2021). Computer technology in modern music education. Academic research in educational sciences, 2(2), 1086-1089.
8. SHUKUROVA, N. G. MUSICAL SCIENCE AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый", (48), 528-530.

Umumhuquqiy tezaurus masalalari

Muyassarxon Baxriddinova

Toshkent davlat yuridik universiteti, Katta o'qituvchisi

muyassar1971@mail.ru

Annotatsiya: Umumhuquqiy tezaurus tuzish masalasini o'rtaga qo'yishdan oldin yuridik terminologiyadagi ayrim muammolar xususida to'xtab o'tish lozim deb topildi.

Huquqshunoslikka doir lug'atlar va qomuslar, ularning holati haqida yuqorida batafsil to'xtab o'tildi. Endi tadqiqot obektimizdagi ayrim masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirib o'tishning zarurligi ayon bo'ldi. Ushbu maqolada umumhuquqiy tezaurus masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: umumhuquqiy, tezaurus

Umumhuquqiy tezaurus tuzish masalasini o'rtaga qo'yishdan oldin yuridik terminologiyadagi ayrim muammolar xususida to'xtab o'tish lozim deb topildi.

Huquqshunoslikka doir lug'atlar va qomuslar, ularning holati haqida yuqorida batafsil to'xtab o'tildi. Endi tadqiqot obektimizdagi ayrim masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirib o'tishning zarurligi ayon bo'ldi.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, ayniqsa, Istiqloldan keyin Respublikamizda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlar, yo'riqnomalar, eng muhimi, va boshqa rasmiy hujjatlarda bir meyorga keltirilgan, tartibga solingan, normalashtirilgan yuridik terminlar asosida dunyoga keldi. Bu ijobiy holatdir. Biroq ayrim manbalarda shunday terminlardan ham foydalanilganki, ular terminologik talablarga to'la javob bera olmayotir. Dalillarga murojaat qilamiz.

Yuridik termin birligi qoidasiga, ayniqsa, bir meyoriy hujjatlar doirasida ko'proq amal qilinmog'i lozim, aks holda qonunchilik texnikasi buziladi, qonun mohiyati aniq tushunilmaydi. Masalan:

Shartli hukm qilish - shartli jazo belgilash;

Shartli ozod qilish - shartli ravishda ozod qilish;

Murakkab aybli jinoyat - qasddan sodir etilgan jinoyat;

Jazo tayinlash - jazo belgilash;

Yuridik shaxsning nochorligi - yuridik shaxsning bankrotligi;

Elchi - vakil – konsul;

Mehnatga qobiliyatsizlik - mehnatga yaroqsizlik - mehnatga layoqatsizlik

kabilar fikrimizning dalilidir.

«Aukcion» termini hozirgi kunda «Kimoshdi savdosi» deb ham yuritilmoqda (ya'ni «auksion»ning sinonimi «kimoshdi»). Fuqarolik kodeksining 379-moddasida esa shunday deyiladi: «Kim oshdi savdosi aukcion yoki tanlov shaklida o'tkaziladi» (160-b.). Demak, «auksion» va «kim oshdi» aynan bir xil tushuncha emas. «Aukcion «kim oshdi»ning bir ko'rinishi ekan.

«Ish boshqaruvchi»sining «ish yurituvchi» ma'nosida berilishi ham terminlar birligiga e'tibor bermaslik natijasidir. «Ish boshqaruvchi» - («upravlyayushiy delami») oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs bo'lib, yuqori lavozim egasidir. «Ish yurituvchi» («deloproizvoditel») esa o'rta ma'lumotli shaxs ham bo'lishi mumkin va u, asosan, idoralarda texnik ishlarni bajaradi. «Ish yurituvchi»ning vazifasi texnik kotib(a) funksiyasiga o'xshashdir¹.

Ilmiy jihatdan asosli andozalangan xalqaro siyosiy-huquqiy terminlarni tilimizda shakllantirishda milliy xususiyatlarimizning o'ziga xos jihatlari ham hisobga olish zarur. Hozirgi kunda agremanni - rozilik, zapasni - zahira, poveskani - chaqiruv qog'ozi, konsensusni - kelishuv, petitsiyani - arznoma, konsulstvoni - konsulxona, kapitalni - sarmoya shaklida ishlatish fikrimizning dalilidir. Mazkur o'g'irishlar maqsadga muvofiq bo'lib, bunda tilimizning milliy jihatlari e'tiborga olingan. Bu ijobiy hol, albatta. Ammo ayrim terminlar standart talabiga javob bermayapti, ular noto'g'ri ishlatilib kelinmoqda.

Masalan: kongress - anjuman

konferensiya - anjuman

Lekin «Kongress - muhim siyosiy, ilmiy va boshqa masalalar yuzasidan o'tkaziladigan xalqaro sezd, kengash» bo'lsa, «Konferensiya - davlatlar, partiya, ijtimoiy, ilmiy va sh.k. tashkilotlar vakillarining biror masalani muhokama qilish, hal etish uchun chaqirilgan majlisi, kengashi»dir².

Demak, kongress va konferensiya o'rtasida farq bor.

Rus tilidagi kontrakt, dogovor, soglasheniye, sdelka terminlari ham o'zbek tilida shartnoma, bitim, kelishuv, biylashuv tarzida aralash ishlatilmoqda:

dogovor - shartnoma, bitim;

kontrakt - bitim, shartnoma, kelishuv;

soglasheniye - bitim, shartnoma;

¹Г.Гулямова.Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2005.

²Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. - М.: Рус тили, 1981. – 395, 397-бетлар.

sdelka - bitim, kelishuv, biylashuv³:

dogovor – shartnoma;

kontrakt – shartnoma;

soglasheniye- bitim, shartnoma, kelishuv;

sdelka - bitim, kelishuv⁴.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan o‘zbek tilining ijtimoiy mavqei ortdi. Davlat, ta’lim, tarbiya, ish yuritish, madaniy-ma’rifiy, maorif ishlari moneliksiz o‘zbek tilida olib boriladigan bo‘ldi; qonunlar o‘zbek tilida yozilib, qonunchiligimiz milliy tus oldi. Qonun tili va uslubi milliylashdi, ko‘plab o‘zbekcha huquqiy atamalar, iboralar va terminlar paydo bo‘la boshladi: davlatchilik, qonunchilik, vakillik, bandlik, hokimlik, sarmoya, mulkdor va boshqalar. Ko‘rinadiki, qonun tili yuridik terminlogiyasiga alohida e’tibor berilmoqda.

Germaniya Federativ Respublikasi mustaqil davlat sifatida dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan biri ekanligi sababli bunday xolat yuz bermaganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek ilmiy terminologiyasining milliylashuvi respublikamizning mustaqillikka erishishi va kelajagi buyuk davlat sifatida tez va jadal rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun o‘zbek yuridik terminologiyasining istiqloq davri taraqqiyoti har jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi⁵.

Nemis xuquqiy tizimida fan va texnika rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan xuquqiy terminlar xisobiga boyib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek yuridik terminologiyasidagi bir xillik tamoyillari, terminlarni andozalash, yuridik terminologiyani muayyan tizim sifatida o‘rganish, ularni ilmiy-nazariy jihatdan tasniflash tamoyillarini ishlab chiqish o‘zbek tilining umumhuquqiy tezaurusini yaratish imkonini beradi.

Nemis tili yuridik terminologiyasi nemis tilshunos olimi Kobler tomonidan asos solinganligi va bir necha nomdagi yuridik terminlar lug‘atlari nashr etilganligi sababli ularni ilmiy-nazariy jihatdan tasniflash qiyinchilik tug‘dirmasligini nemis tilshunos olimlari tomonidan e’tirof etilgan.

Tezaurus biror tilning mukammal lug‘ati bo‘lib, terminologiya asosini tashkil qiladi. Tezaurus – so‘z va terminning to‘liq mazmuniy ma’lumotini beruvchi lug‘aviy

³ Юридик атамалар ва иборалар луғати. - Т.: Адолат, 1993.

⁴ Аҳмедов Ғ., Бектемиров Ҳ. Русча-ўзбекча юридик атамалар луғати. - Т.: Адолат, 2002.

⁵Қаранг: Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси Қонунларининг тили: Филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. - Т., 1995. - 12-бет.

birlik, muayyan tushunchaning interlisoniy va ekstralisoniy aloqalari tizimidir.

Keyingi vaqtlarda ilmiy sohaga tizimli yondashuv har qanday nutqiy obektlarning uzviy belgisi sifatida tan olinmoqda. Xuddi shunday, terminologiyada sistemalilik alohida til elementlari munosabatlari sistemaning mantiqiy to'g'riligini anglatadi. Shu bois, qonunchilik tili uchun umumhuquqiy tezaurusning yuridik terminlari asosiy omillardan hisoblanadi. Chunki qonunchilik sohasidagi terminlar erkin leksemalar yig'indisi emas, balki yurisprudensiyadagi ichki bog'liqlikni ifodalovchi terminologik tizimni tashkil etadi. Shuning uchun qonunchilikda ham yuridik terminlar o'rtasidagi munosabatlarni umumhuquqiy tezaurus aks ettiradi. Tezaurus qonunchilikka muayyan talablar qo'yadi va terminologik qonun-qoidalarga qat'iy rioya qilishni talab qilishga undaydi. YA'ni umumhuquqiy tezaurus tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalab, tushunchani aniq ta'riflashga, qarama-qarshi ma'nolarni keltirib chiqarmaslikka da'vat etadi. Shu bois, terminlarning aniqligi, bir ma'noliligi barqarorligiga erishiladi. Umumhuquqiy tezaurus orqali terminning qo'llanilishi mumkin bo'lgan yagona ma'nosi belgilanadi⁶.

Tezaurusda huquqiy terminlarga xos bo'lgan umumjihatlar (ma'no qirralari va semalari) to'liq aks etadi. Shuning uchun tezaurus semantikasi yuridik terminlar orqali ifodalanadigan asosiy (umumiste'mol) ma'noga teng bo'ladi: tezaurus ma'nosi yurisprudensiya uchun dominant ma'no sanaladi. Binobarin, tezaurusning mohiyati terminlarga xos barcha qirralarni, jihatlarni, xususiyatlarni, ma'no ottenka (vazifa - vazifadoshlikni, ma'no - ma'nodoshlikni, sema - sememalik va b.) larini umumlashtirib sharhlash orqali aniqlanadi. Fikrimizning dalili sifatida «amnistiya» terminining o'zbek tilidagi izohini olib ko'raylik.

Huquqshunoslikning turli sohalarida ishlatib kelinayotgan quyidagi terminlarni ko'rib chiqamiz: ish staji, ishlab chiqarish staji, mehnat staji. Bu terminlar aslida bitta tushunchani ifodalaydi. Endi ularning dominantini aniqlash lozim bo'ladi. Bizningcha, bu terminlarning dominantini mehnat staji hisoblanadi. Quyida berilgan nemis tilidagi terminlarning dominantini ham mehnat staji (Die Dienstzeit) hisoblanadi. Die Dienstzeit, das Dienstalder, die Arbeitspraxis (mehnat staji, mehnat amaliyoti, uzoq mehnat tajribasiga ega shaxs)

Afsuski, hali o'zbek yuridik terminologiyasining puxta umumhuquqiy tezaurusi yaratilgan emas. Shu sababli qonunchilik terminologiyasida xilma-xilliklar tobora avj olib ketmoqda. Bir ma'no anglatuvchi tushunchalar turli ko'rinishda berilmoqda:

⁶Г.Гулямова.Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2005.

(mehnatga qobiliyatsizlik - mehnatga yaroqsizlik - mehnatga layoqatsizlik; meyoriy hujjat - meyoriy qonun - meyoriy akt va boshqalar.).

Nemis tilining qonunchilik terminologiyasida mehnatga qobiliyatsizlik iborasida faqatgina birgina Arbeitsunfähigkeit terminini uchratishimiz mumkin

Nemis tilining qonunchilik terminologiyasida meyoriy qonun ma'nosini ifodalovchirechtmäßig (qonuniy), rechtsgültig (qonuniy), rechtskräftig(qonuniy),Rechtswirksamkeit (qonuniy) kabi terminlarni qo'llanilayotganini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г.Гулямова.Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2005.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. - М.: Рус тили, 1981. – 395, 397-бетлар.
3. Юридик атамалар ва иборалар луғати. - Т.: Адолат, 1993.
4. Аҳмедов Ғ., Бектемиров Ҳ. Русча-ўзбекча юридик атамалар луғати. - Т.: Адолат, 2002.
5. Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси Қонунларининг тили: Филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. - Т., 1995. - 12-бет.

**YANGI O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK ISLOHOTLAR GENDER
ADOLAT YO‘LIDA**

Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o‘g‘li
Xaitmurodov Sardorbek Xasan o‘g‘li
Hamroqulova Durдона Sherali qizi

**Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya (faoliyat
yo‘nalishlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalari**

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda gender tenglik borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan qonunlar orqali erkaklar va xotin-qizlar uchun teng huquq va erkinliklar yaratish borasidagi kafolatlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlashda qonunlarning o‘rni, ularning huquqlarini buzilishini oldini olish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlariga nisbatan jinoiy jazo tizimini kuchaytirish borasidagi takli va mulohazalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, xotin-qizlar huquqi, jazo tizimi, erkaklar va ayollar, gender tenglik ko‘rsatkichi, imtiyozlar, reabilitatsiya, steriotip, ayol rahbar, ayol elchi

Annotation: This article talks about the reforms implemented in our country regarding gender equality, in particular, the guarantees of creating equal rights and freedoms for men and women through laws. Also, the role of laws in ensuring women's rights, prevention of violation of their rights, strengthening of the criminal punishment system in cases of harassment and violence against women will be discussed.

Keywords: gender equality, women's rights, penal system, men and women, gender equality indicator, benefits, rehabilitation, stereotype, female leader, female ambassador

Tahlil

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ijtimoiy, madaniy hamda siyosiy sohada ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, inson qadri tamoyili asosida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev gender tenglik borasida xotin-qizlar huquq va erkinliklariga, ularning ta‘lim olishi, yaxshi mehnat sharoitlarida ishlashlari, shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyalaniishlariga alohida e‘tibor qaratdilar. Bu

o'z navbatida mamlakatimizda insonga e'tiborning yangicha na'munasi sifatida demokratik davlat sifatidagi o'rnimizni mustahkamladi.

Gender tenglik o'zi nima? Gender tenglik bu – adolat. Erkak va ayol uchun jamiyatda tenglik asosida bir xil huquqlar va erkinliklar berish, ularning madaniy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda o'zini ko'rsatishida keng imkoniyatlar berish. Bugungi kunda ayollarimiz tomonidan ilm-fan sohasida keng yutuqlarga erishayotganligining guvohi bo'lamiz. Bu o'z o'zidan emas albatta, zero, 6-7 yil oldin xotin-qizlar ta'lim olishiga jamiyatda negativ qarashlar mavjud edi. Bugun esa gender tenglik borasidagi islohotlar o'laroq xotin-qizlar ta'lim olishlariga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilib, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun davlat grandlari soni oshirilmoqda.

2019-yilda "Erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratish to'g'risidagi" qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun orqali xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishga, ularning rahbarlik lavozimlarida ishlashlariga, ta'lim olishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha masalalarni hal etish, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida gender tenglikka erishishga, oilani mustahkamlashga, onalik, otalik hamda bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda, jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligiga erishishga, davlat xizmatining rahbarlik lavozimlariga ilgari surish chog'ida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yimaslik uchun zarur choralarni ko'rishga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishga davlat siyosatida darajasida e'tibor qaratilganligi albatta demokratik davlat sifatida rivojlanayotganligimizni tasdiqlaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz gender tenglikni, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi ishlarning joriy holatini o'rganish, mavjud muammolarni tanqidiy jihatdan tahlil qilish va bartaraf etish choralarni ko'rish orqali xotin-qizlarga jamiyatda tenglik adolati ta'minlanmoqda. Shuningdek, tizimli ishlar samarasi o'laroq hozirda xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini erkaklar bilan teng ravishda oshirish uchun davlat organlarining jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirilmoqda.

Hozirda gender tenglik tushunchasini har kim har xil tushunish holatlari uchramoqda. Ba'zilar gender tenglik borasidagi islohotlarni Yevropa davlatlarining

oqimi sifatida negativ qarash bilan baholamoqda. Ayollar huquqlarini ta'minlash, ularga davlat hokimiyatining rahbarlik lavozimlarida ishlashlari uchun huquqlar kafolatlash, eng asosiysi ayolni e'zozlash va hurmat qilib, uni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni Yevropadan olingan oqim deb baholash noto'g'ri. Zero, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Narbayeva ta'kidlaganlaridek, biz o'zbekona gender tenglikni ta'minlayapmiz, biz gender tenglik siyosati o'laroq milliyligimiz va o'zbekona qadriyatlarimizga zid bo'lmagan gender siyosatini yuritmoqdamiz.

Gender tenglik borasidagi salmoqli islohotlardan yana biri bu 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining qabul qilinganligidir. Albatta ushbu strategiya gender tenglik borasidagi ishlar va kelgusidagi rejalarni o'z ichiga olib, mamlakatimizning gender tenglik borasidagi islohotlariga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 300 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda 45 nafar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga 2019-yilda bo'lib o'tgan saylovlarda ro'yxatdan o'tgan 21 435 000 nafar saylovchining qariyb 50 foizi yoki 10 825 641 nafari xotin-qizlardir.

Ushbu ko'rsatkichlar so'nggi yillarda mamlakatimizdagi muhim islohotlarning amaliy natijasi desak bo'ladi. Xususan, O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalariga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlamentlar o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Bu esa davlat va jamoat ishlarida xotin-qizlarning huquqlari to'liq kafolatlanganligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi
4. O'zbekiston Respublikasining "Erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlar to'g'risida"gi Qonuni
5. Oliy Majlis Senatining "2030 yilga qadar gender tenglikka erish strategiya" to'g'risidagi qarori

XORIY DAVLATLARINING FUQAROLARNING JAMOAT TARTIBINI SAQLASHDA ISHTIROKINI MA'MURIYHUQUQIY TARTIBGA SOLINISHINING ILG'OR TAJRIBASI

Azimov Umid Gafurovich

Milliy gvardiya Kashkadare viloyati buyicha boshkarmasi boshligi polkovnik

Annotatsiya:

Ushbu maqolada fuqarolarimizning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan bo'lib bunda davlatimiz tomonidan fuqarolarimiz ishtirokini rag'batlantirishga doir amalga oshirilgan choratadbirlari doirasida chiqarilgan qarorlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida boshqa davlatlarning jamoat tartibini saqlashdagi fuqarolar ishtirokini ta'minlashning ma'muriy huquqiy tartibga solinishi aniq huquqiy asoslar bo'yicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tajriba, fuqarolarni rag'batlantirish, pul mukofoti, "whistleblowing", "fosh etuvchi", jamoatchilik ishtiroki.

Bugungi kundagi rivojlanayotgan zamonda davlatimizning farovon hayoti uchun fuqarolarimizning jamoat tartibini saqlashdagi ishtirokini ta'minlash oldimizdan turgan dolzarb masalardan biridir. Chunki biz jamiyatning bir qismi bo'lgan holda, unga ta'sir qilishimiz, rivojlanishida ishtirok etishimiz va farovonligiga hissa qo'shishimiz mumkin. Shuning uchun fuqarolik amaliyoti - jamiyatimizda faol rol o'ynash amaliyoti sifatida ham tushuniladi. Bunday ishtirok etish bizning mahallamizda, rasmiy yoki norasmiy ijtimoiy guruhda, mamlakatimizda yoki butun dunyoda bo'lishi mumkin. Ming afsuslar bo'lsinki, qonun hammaga barobar bo'lishi kerak deymizu, lekin ko'pincha bunga o'z hissamizni qo'shgimiz kelmaydi. O'zimiz guvoh bo'lib qolgan huquqbuzarlik haqida tegishli organlarga xabar berishga, xatto u jinoyat bo'lsa ham, o'zimizcha "or" qilamiz. Buni "sotqinlik" va yana bir balo so'zlar bilan nomlab olgan huquqbuzarlar, jinoyatchilarga fikran ergashayotganimizni o'zimiz ham sezmaymiz. Aslida, har qanday mamlakatda huquqbuzarliklarni oldini olish va bartaraf qilishda nafaqat davlat organlari, balki har bir fuqaroning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Zero tariximizning buyuk olimlaridan biri bo'lmish Aristotel aytganidek "Yaxshi inson va yaxshi fuqaro bo'lish har doim ham bir xil emas".

Bundan tashqari davlatimiz qonunchiligida mamlakat mustaqilligini hamda hududiy yaxlitligini, xalqimizning tinch hayoti va mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi bunyodkorlik va mehnatini himoya qilish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida mamlakat fuqarolari uchun umumiy harbiy majburiyat

joriy etilishi belgilangan. Huquqbuzarlik haqida oddiy aholi tomonidan xabar berilishining eng yaxshi tomonlaridan biri shuki, bu holatda tegishli organ huquqbuzarlik sodir etgan fuqaroni, u kim bo'lishi va mansabidan qat'iy nazar, jazoga tortishga majbur bo'ladi. Ya'ni, tanishbilishchilik qilib jazodan qutulib ketish ehtimoli juda ham past. Buni yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini buzganlar misolida ko'rib turibmiz. Shu sababli, so'nggi yillarda, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ham ayrim sohalarda huquqbuzarliklar haqida xabar bergan fuqarolarni rag'batlantirish mexanizmi joriy etildi.

Milliy qonunchiligimizning bir qator normativ huquqiy hujjatlarida jinoyat to'g'risida xabar berganlik uchun fuqarolarni rag'batlantirish masalasi ko'zda tutilgan.

Xorijiy mamlakatlarda davlat va xususiy sektorlarida turli xil jinoyatchilik, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni fosh qilish maqsadida fuqarolarni rag'batlantirish uslubidan ham keng foydalaniladi. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada va boshqa davlatlar qonunchiligida ham korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmi sifatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish tartibi belgilangan bo'lib, bundan tashqari, bunday mamlakatlar qonunchilik tizimida fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki huquqiy tartibga solingan.

Xususan, quyidagi davlatlarda ixtiyoriy xalq otryadlarining jamoat tartibini saqlashda ishtirokini tarixan rivojlanib kelganligini ko'rishimiz mumkin: Buyuk Britaniyada: buyuk Britaniyada tartibni saqlash uchun mas'ul bo'lgan birinchi ko'ngillilar XI asrda paydo bo'lgan va XIII asrda ularning huquqlari va majburiyatlari allaqachon qonun bilan mustahkamlangan. Keyingi asrlarda ixtiyoriy tartibni saqlovchilar instituti rivojlanib, o'zgartirildi. Ayni paytda mamlakatda ixtiyoriy politsiya (maxsus Konstabulary) mavjud bo'lib, uning xodimi 18 yoshdan oshgan har qanday fuqaro bo'lishi mumkin. U politsiya xodimlarining umumiy talablariga javob berishi va maxsus tayyorgarlik kursidan o'tishi kerak.

Birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar ierarxiasini hisobga olgan holda, Rossiya va Qozog'istonda fuqarolarning ijtimoiy tartibni himoya qilishda ishtirokini tartibga soluvchi Qonunchilikshunga o'xshash tizim bo'yicha ko'rib chiqilayotgan davlatlarda Eno:

- 1) asosiy konstitutsiyaviy normalar va tamoyillar;
- 2) fuqarolarning huquqni muhofaza qilishda ishtirok etish huquqini amalga oshirish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri jamoat munosabatlari tartibga solinadigan maxsus qonunlar;

3) boshqa tartibga solish predmetiga ega bo'lgan, ammo shu bilan birga tartibga soluvchi boshqa qonunlar fuqarolarning jamoat tartibini himoya qilishda yordam berishning alohida jihati, shu jumladan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar;

4) qonunlarni bajarish uchun chiqarilgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar va fuqarolarning umumiy tartibni himoya qilish bo'yicha tashkil etilishi va faoliyatining ayrim masalalarini aniqlashtirish;

5) fuqarolarning qonun va tartibni ta'minlashda ishtirok etishining ayrim jihatlarini tartibga soluvchi mintaqaviy va mahalliy (shahar) normativ - huquqiy hujjatlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ichki ishlar organlari tomonidan taqdim etilgan davlat bilan jamoatchilik hamkorligining keng tarqalgan shakllaridan biri bu fuqarolarning jamoat tartibini himoya qilishda ishtirok etish institutidir. Uning ishlash samaradorligi ko'p jihatdan qonun hujjatlarida tartibga solish darajasiga va bunday ishtirok etishning asosiy tushunchalari, tamoyillari, shakllarini, huquqni muhofaza qilishda ishtirok etadigan shaxslarning maqomini, shu jumladan kafolatlar, imtiyozlar va kompensatsiyalarni tartibga solishga bog'liq. Shunga ko'ra, huquqbuzarliklarni oldini olish va bartaraf qilishda jamoatchilik ishtiroki kengaytirilishi, huquqbuzarlik haqida xabar berish rag'batlantirilishi mamlakatda huquqbuzarliklar kamayishiga, qonun ustivorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2018 yil 20 sentabrdagi 747-son. "Jismoniy va yuridik shaxslarning avtotransport vositalariga o'rnatilgan videoregistratorlar shuningdek, videokuzatuv va tasvirga olish texnika vositalari hamda mobil qurilmalar orqali qayd etilgan huquqbuzarlik holatlari to'g'risidagi videoyozuvlarni qabul qilish, ko'rib chiqish hamda ularni taqdim etgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. <https://lex.uz/>

2. Ўзбекистон Республикасида ҳарбий хизматни ўтаётган ҳарбий хизматчиларнинг жиноий ва моддий жавобгарлигининг назарий-ҳуқуқий асослари (cyberleninka.ru)

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4845-sonli Qarori. <https://lex.uz/>

RESPONSE OF SUNBERRY TO DIFFERENT CLIMATIC CONDITIONS

Termiz Institute of Agrotechnology and Innovative Development

Assistant teacher

Azamat Rahmatillayevich Khaidarov

ax140011@gmail.com

Most of the vegetable cultivar families Nightshade food from the Central American or South American center, and therefore, the desire for growing conditions All these factors are indispensable, but equivalent. A complex of external effects affecting the association of plants into 4 groups:


- climatic (light, temperature, air humidity);
- edaphic (water supply and universal nutrition);
- bio-macrotic (harmful and beneficial microflora, flora and fauna, interaction of plants in crops);
- anthropogenic (associated with human activities) (Bunin et al., 2006).

There is little information in the popular literature about relation of garden nightshade Sunberry to growing conditions. Often these data differ from each other, and in some cases they are even contradictory.

Temperature is one of the main factors in plant life; it affects respiration, assimilation and other physiological processes in plants. According to the requirements for heat, V.I. Edelstein divided vegetables into 5 groups:

- frost-resistant and winter-hardy (tolerate frosts down to -80C, and the temperature optimum is 15-20C);
- cold-resistant (tolerate frosts down to -50C, and the temperature optimum is 18-25C);
- intermediate between cold-resistant and heat-loving (the aerial part dies at a temperature of 0C, and the optimum temperature is 17-21C);
- demanding for heat (slow death begins at a temperature of + 3-5C, and at - 0.5-1.0C death occurs. The optimum temperature for growth and development is 20-30C);
- heat-resistant (the aerial part dies at a temperature of 0C, the optimum growth temperature is 30-40C).

The main vegetable crops of the Solanaceae family and the genus Nightshade,



tomato, pepper, eggplant, belong to the group of plants demanding heat. Their seeds begin to germinate at a temperature of 15-16°C, and the optimum temperature for germination is 25-30°C. The optimum temperature for the growth and development of these crops is 20-30°C. A decrease in temperature below 15°C and an increase above 30°C adversely affects the growth and development of plants. In relation to air temperature, Sunberry nightshade should be attributed to heat-demanding crops like tomato and eggplant, which have the same region of origin and belong to the same botanical genus Nightshade (Bunin et al., 2006, Zuev V.I., et al. 2016).

As you know, solar energy is a major factor in the life of green plants. Due to solar energy, carbon dioxide and water with the help of chlorophyll, green plants are able to create and accumulate organic compounds. In relation to light, vegetable crops are distinguished by the following features: reactions to light intensity, spectral composition, and length of day and night.

In Sunberry nightshade, they are almost the same as in tomato, and it grows on soils of almost any mechanical composition. It is preferable for Sunberry drained, well-warmed, fertile, sandy or loamy soils, with a slightly acidic or neutral (pH 6.1-7.5) reaction.

The best predecessors are plants of the Cabbage and Pumpkin families, as well as root crops and green crops. Re-cultivation of Sunberry in the same area is recommended no earlier than after 3-4 years. The same requirements apply to other cultures of the Solanaceae family (Zuev V.I., et al. 2009). Popular literature notes that Sunberry nightshade grows well in soils of varying fertility, but gives higher yields on fertile, well-cultivated sandy or loamy soils. There is a positive effect of organic and mineral fertilizers on the yield of Sunberry nightshade in the open field. Some researchers recommend applying 40-60 t/ha of humus under Sunberry nightshade, others recommend applying 250-300 kg/ha of complex fertilizer such as azophoska as the main fertilizer.





There are no scientifically based recommendations on the application of mineral fertilizers under Sunberry nightshade in the open ground of Uzbekistan. In relation to soil moisture, vegetable crops are divided into 4 groups: the most demanding, highly demanding, less demanding and resistant to arid conditions. Common crops of the Solanaceae family, Solanaceae genus differ in their requirements for soil moisture. Thus, eggplant is one of the most demanding crops, tomato is highly demanding, and potatoes are less demanding crops (Andreev, 2002). There is no Sunberry nightshade in the existing classification. According to the available literature data, Sunberry nightshade is a relatively drought-resistant plant, however, it requires a large amount of water to form a large vegetative mass and a high yield of fruits. In almost all literary sources, it is noted that timely sex has a positive effect on the growth and development of plants and contributes to an increase in the yield of Sunberry nightshade in the open field. There are no scientifically substantiated recommendations for irrigating Sunberry nightshade in the open field in the conditions of Uzbekistan (terms, norms, development phases, etc.). In the absence of evidence-based recommendations for irrigation, one should be guided by the general feature of vegetable crops, the most efficient use of moisture from the soil at 70-85% of the lowest moisture capacity (LW). The development of the root system is an important indicator of the ratio of vegetable crops to soil moisture. Plants with strong, deep root systems extract water from a larger volume of soil and from its deeper layers. As you know, according to the development of the root system, vegetable crops are divided into 4 groups: with a highly branched root system (to a depth of 2-5 m), a relatively strongly branched root system (to a depth of 1-2 m), with highly branched roots (the roots penetrate into subarable horizons to a depth of 50-60 cm), with a string-like root system (the roots are concentrated in the arable horizon and form a small number of root hairs). The main vegetable crops of the nightshade family of the genus Nightshade belong to crops with a relatively highly branched root system (tomato when sowing seeds in the ground) and with highly branched roots (eggplant and tomato when grown through seedlings). Nightshade Sunberry is not included in this classification. In the literature, it is noted that Sunberry nightshade has a powerful root system capable of penetrating deep into the subsurface horizons.

Relative humidity (RH) has a great influence on the growth and development of plants, resistance to physiological and fungal diseases. The optimal RHV depends on the species characteristics of the crop and ranges from 50-60% for gourds to 80-95% for cucumber and cabbage. The optimum relative air humidity for common vegetable crops of the Solanaceae family is at the level of 60-80% (Matveev, Rubtsov, 1985). Excessive air humidity prevents fertilization and increases the damage of plants by bacterial and fungal diseases. For common crops of the Solanaceae family - first of all, black bacterial spot and late blight (Dementieva, Vygonsky, 1988). With a lack of moisture in the air, top rot appears on the fruits of the tomato. There are no scientific literature data on optimal air RH for Sunberry nightshade. Vegetable crops also differ in their susceptibility to the concentration of salts in the soil solution. According to salt tolerance, vegetable crops are divided into 3 groups: highly salt-resistant (withstand salinity up to 1%), medium-salt-resistant from 0.4 to 0.6%) and salt-resistant (from 0.1 to 0.4%) (Tarakanov, Mukhin, 2002). Vegetable crops of the Solanaceae family tolerate high concentrations of soil solution quite well and are classified as high-salt-resistant (eggplant) and medium-salt-resistant (tomato) crops. There are no data on the ratio of Sunberry nightshade to the concentration of salts in the soil solution.

Many cultivated plants of the Solanaceae family, when grown in the open ground of Uzbekistan, are affected by pests and diseases. Among the pests, the most harmful are the Colorado potato beetle, aphids and scoops. Among viral diseases, mosaic, streak and bronze tomato are often found. Of the bacterial diseases, the most harmful are bacterial black spot and bacterial cancer, and of fungal diseases, late blight, anthracnose, macrosporiosis, gray rot and diplodiniasis. There is evidence in the literature that Sunberry nightshade plants, when grown outdoors, can be damaged by the Colorado potato beetle and aphids. Information on the resistance of Sunberry nightshade to viral, bacterial and fungal diseases when grown outdoors in Uzbekistan.

List of used literature

1. Bunin, M.S. Methodology for substantiating the prospects for the development of the regional fruit and vegetable subcomplex / - M.: Federal State Scientific Institution "Rosinformagrotech", 2006. - 160 p.
2. Andreev, Yu.M. Vegetable growing: A textbook for the beginning. prof. Education / - M.; prof. obr.izdat, 2002. - 256 p.
3. Dementieva, M.I. Diseases of fruits, vegetables and potatoes during storage / Agropromizdat, 1988. - 231 p.
4. Zuev. V.V., Mavlyanova R.F., Dusmuratova S.I., Buriev Kh.Ch. Vegetables are food and medicine. Publishing house "Navruz". Tashkent. Uzbekistan-2016, 216 p.

5. Zuev V.I., Madreimova D., Buriev Kh.Ch. Ecologically safe vegetables are the basis of a healthy diet. Tashkent, 2009. 30 p.

Сравнительные результаты эндоскопического лечения язвенной болезни желудка и двенадцатиперстной кишки, осложненной кровотечением

Бабаджанов А.Х

ГУ «РСНПМЦХ имени акад. В.Вахидова»

Садыков Р.А

ГУ «РСНПМЦХ имени акад. В.Вахидова»

Джуманиязов Д.А.

ГУ «РСНПМЦХ имени акад. В.Вахидова»

Аннотация. В хирургическом лечении язвенных кровотечений необходим индивидуальный подход к выбору лечебной тактики. Проведен анализ результатов у 204 пациентов в группе сравнения и 121 больного в основной группе. Предложенный способ эндоскопической лазерной ретракции кровяного сгустка на поверхности язв слизистой желудка и ДПК (при кровотечениях типа Ф-Ia-б и Па-б) обеспечивает хороший гемостатический эффект, позволяет снизить частоту рецидива кровотечения с 12,3% (у 25 из 204 пациентов в группе сравнения) до 2,5% (у 3 из 121 пациента в основной группе; критерий $\chi^2=9,219$; $df=1$; $p=0,003$).

Ключевые слова: кровотечение; эндогемостаз; лазерная фотокоагуляция.

В хирургическом лечении язвенных кровотечений необходим индивидуальный подход к выбору лечебной тактики. В последнее время эндоскопический гемостаз чаще упоминается как альтернативный метод, хотя ряд авторов считают, что он является широкодоступным, быстро выполнимым и в то же время высоко информативным. Большим преимуществом является то, что с помощью эндоскопии осуществляется не только диагностика, но и одномоментное устранение желудочно-кишечных кровотечений.

Проведен анализ результатов у 204 пациентов в группе сравнения и 121 больного в основной группе.

При анализе сводной частоты рецидива кровотечения после эндоскопического гемостаза становится очевидным, что при острой язве в основной группе за счет применения нового метода лечения удалось значительно снизить частоту рецидивов кровотечения при всех степенях ЖКК, суммарно с 10,7% до 1,4% ($\chi^2=5,498$; $df=1$; $p=0,020$). При хронической язве

картина аналогичная, частота рецидивов в группе сравнения составила в итоге 14,1%, в основной же группе – 3,8% ($\chi^2 = 3,765$; $df=1$; $p=0,053$). Если суммировать все язвы, то следует констатировать тот факт, что благодаря применению новых технологий в основной группе удалось снизить количество рецидивов ЖКК с 12,3% до 2,5%, что почти в 5 раз ниже ($\chi^2 = 9,219$; $df=1$; $p=0,003$).

Если анализировать частоту рецидива кровотечений после эндоскопического гемостаза в зависимости от тяжести по Forrest (1974), то становится очевидным, что наибольшая разница отмечена в группе сравнения у больных с Ф-Ia и Ф-Iб степенью ЖКК с симптоматическими факторами риска ($\chi^2 = 4,305$; $df=1$; $p=0,039$). В целом, если взять всех пациентов, то при Ф-Ia и Ф-Iб степени ЖКК удалось сократить частоту рецидивов с 20,0% в группе сравнения до 5,3% в основной группе ($\chi^2 = 4,126$; $df=1$; $p=0,043$). При Ф-IIa и Ф-IIб степени ЖКК частота рецидивов кровотечения уменьшилась с 9,0% в группе сравнения до 1,2% в основной группе ($\chi^2 = 5,568$; $df=1$; $p=0,019$). Уменьшение рецидивов кровотечения в 4-7 раз значительно улучшает результаты лечения пациентов, сокращает сроки реабилитации.

При сравнении эффективности первичного и вторичного эндоскопического гемостаза в зависимости от наличия лекарственных факторов риска оказалось, что несмотря на то, что в основной группе даже без лекарственных факторов риска, потребность в повторном гемостазе и оперативном лечении составляла всего 1,5% против 7,5% в группе сравнения, при наличии симптоматических факторов риска эта разница была еще более ощутимой и уже достоверной. Так, в группе сравнения повторный эндогемостаз понадобился в 12 (12,2%) случаев, тогда как в основной группе у 1 (1,8%) пациента, прибегнуть к хирургическим методам пришлось в 5 (5,1%) случаях в группе сравнения и лишь в 1 (1,8%) случаев в основной группе ($\chi^2 = 6,396$; $df=2$; $p=0,041$). Суммарно, независимо от наличия лекарственных факторов риска в основной группе в 118 (97,5%) случаев удалось избежать повторного эндогемостаза и оперативного лечения против 179 (87,7%) случаев в группе сравнения ($\chi^2 = 9,234$; $df=2$; $p=0,010$).

При сравнении эффективности эндоскопического гемостаза в группе с кровотечениями Ф-Ia и Iб, независимо от наличия лекарственных факторов риска в основной группе в 36 (94,7%) случаев удалось избежать повторного эндогемостаза и оперативного лечения против 48 (80,0%) случаев в группе сравнения ($\chi^2 = 4,151$; $df=2$; $p=0,126$). При сравнении эффективности

эндоскопического гемостаза в группе с кровотечениями Ф-Па и Пб отмечается картина, аналогичная предыдущей, в основной группе в 82 (98,8%) случаев удалось избежать повторного эндогемостаза и оперативного лечения против 131 (91,0%) случаев в группе сравнения ($\chi^2=5,619$; $df=2$; $p=0,061$).

При сравнении эффективности эндоскопического гемостаза у всех больных в основной группе отмечено достоверное повышение эффективности в основной группе за счет применения лазерной фотокоагуляции. Суммарно в группе сравнения эффективность первичного эндогемостаза составила 179 (87,7%) случаев, в основной группе – 118 (97,5%), летальность в группе сравнения составила 3 (1,5%), в основной группе летальности не отмечено ($\chi^2=9,555$; $df=3$; $p=0,023$).

Повторное эндоскопическое исследование было выполнено 92 пациентам в группе сравнения и 59 больным в основной группе. Исследование в динамике осуществлялось на 4-5 сутки после эндоскопического гемостаза. Следует еще раз отметить, что во всех случаях в обеих группах консервативная терапия была одинаковой. Сравнительная динамика по сокращению диаметра язвенного дефекта показывает схожие размеры язвы в начале лечения 1,54/1,56 см ($t=0,26$; $p>0,05$) и более выраженное уменьшение в диаметре в основной группе в динамике 1,24/0,97 см ($t=3,43$; $p<0,05$).

Таким образом, предложенный способ эндоскопической лазерной ретракции кровяного сгустка на поверхности язв слизистой желудка и ДПК (при кровотечениях типа Ф-Ia-б и Па-б) обеспечивает хороший гемостатический эффект, позволяет снизить частоту рецидива кровотечения с 12,3% (у 25 из 204 пациентов в группе сравнения) до 2,5% (у 3 из 121 пациента в основной группе; критерий $\chi^2= 9,219$; $df=1$; $p=0,003$). В зависимости от тяжести кровотечения эффективность первичного эндоскопического гемостаза в группе с Ф-Ia и Ib увеличилась с 80,0% (у 48 из 60 пациентов в группе сравнения) до 94,7% (у 36 из 38 пациентов в основной группе), в группе с Ф-Па и Пб с 91,0% (у 131 из 144 пациентов в группе сравнения) до 98,8% (у 82 из 83 пациентов в основной группе). В целом частота эффективного первичного эндогемостаза возросла с 87,7% (у 179 из 204 пациентов в группе сравнения) до 97,5% (у 118 из 121 пациента в основной группе), вторичный гемостаз был достигнут в 8,8% (18 пациентов) и 1,7% (2 пациента) соответственно, доля оперативного лечения сократилась с 3,4% (7 пациентов) до 0,8% (1 пациент; критерий $\chi^2= 9,234$; $df=2$; $p=0,010$). На фоне применения предложенного способа отмечена более выраженная регенерация язвенных дефектов, так в группе сравнения в динамике

на 4-5 сутки после эндогемостаза диаметр язв сократился с $1,54 \pm 0,44$ см до $1,24 \pm 0,45$ см, тогда как в основной группе с $1,56 \pm 0,47$ см до $0,97 \pm 0,49$ см ($t=3,43$; $p<0,05$). Достигнутая эффективность эндоскопического гемостаза позволила сократить количество госпитальных койко-дней с $5,8 \pm 1,3$ суток до $4,6 \pm 1,1$ суток ($t=8,74$; $p<0,05$).

Список литературы:

1. Назыров Ф.Г., Нишанов М.Ф. Обоснование гастродуоденоанастомоза с экономной резекцией желудка в хирургии язвенной болезни двенадцатиперстной кишки // МНС. 2014. №1 (56).
2. Нишанов Ф.Н., Нишанов М.Ф., Абдуллажанов Б.Р., Гафуров У.А. Хирургическая тактика при дуоденальных кровотечениях язвенного генеза // Вестник Национального медико-хирургического Центра им. Н.И. Пирогова. 2015. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hirurgicheskaya-taktika-pri-duodenalnyh-krovotечeniyah-yazvennogo-geneza>.
3. Yakubov F.R., Erniyazov E.A., Sapaev D.S. (2023). Modern Treatment of Mallory-Weiss Syndrome. International journal of health systems and medical sciences, 2(4), 27–33. Retrieved from <https://inter-publishing.com/index.php/IJHSMS/article/view/1415>
4. Якубов Ф.Р., Сапаев Д.Ш., Эрниязов Э.А., Маткурбонов Н.О., Якубов Р.Ф. Меллори - Вейсс синдромини кам инвазив усуллари кўллаган ҳолда ташхислаш ва даволаш. Биология ва тиббиёт муаммолари. 2023, №1 (142). – Б. 143-145.

ISLOM DINIDA INSON MA'NAVIYATI VA MA'RIFATI MASALASI

Davronova Feruza Raxmanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida
o'qituvchi, s.f.f.d. (PhD)

G'aniyeva Zaynab Xusanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mamlakatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning chora-tadbirlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgan sharoitda qonunlarni musulmon huquqiga asoslanib ilmiy tahlil qilish g'oyat muhim sanaladi. Mazkur maqolada Islom dini ezgulik, ilmga yetaklovch muqaddas din ekanligi ko'rib chiqiladi va uning asoslari milliy urf odatlarimiz va Konstitutsiyamiz bilan solishtiriladi.

Kalit so'zlar: Islom dini, ma'rifat tushunchasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, vatanga muhabbat, ota-onaga yaxshilik, qo'shnichilik odobi, poraxo'rlik, haqoratlash.

Аннотация: Научный анализ законов, основанных на мусульманском праве, считается чрезвычайно важным в условиях, когда в нашей стране разрабатываются и реализуются меры по повышению правовой культуры. В данной статье исследуется тот факт, что ислам является хорошей, святой религией, ведущей к знаниям, и сравниваются его основы с нашими национальными традициями и Конституцией.

Ключевые слова: Ислам, понятие просвещения, Конституция Республики Узбекистан, любовь к Родине, доброта к родителям, добрососедство, подкуп, оскорбления.

ANNOTATION: The scientific analysis of laws based on Islamic law is considered extremely important in the conditions when measures are being developed and implemented in our country to improve the legal culture. This article explores the

fact that Islam is a good, holy religion that leads to knowledge and compares its foundations with our national traditions and constitution.

KEYWORDS: Islam, the concept of enlightenment, the Constitution of the Republic of Uzbekistan, love for the Motherland, kindness to parents, good neighborliness, bribery, insults.

Islom dini ma'rifat dinidir. Inson hayotini esa ilmu ma'rifatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'rifat – musulning ikki dunyosini yorituvchi nur. Islomiy ma'rifat vositasida biz dunyo va oxiratimiz go'zalligiga yo'l topamiz. Shu ma'rifat orqali Yaratganni, uning qudratini, yaratilganini taniymiz, Ilohiy Kalomning hikmatini anglaymiz. Ana shunday ma'rifatdan bahramand bo'lgan oriflar jamiyatida nafaqat insonga, balki hayvonga, qurt-qumursqalarga, bir so'z bilan aytganda butun jonli va jonsiz mavjudotga hal muomalada bo'ladi. Chunki ma'rifatli inson tabiatdagi birgina toshning ham o'z o'rnini va vazifasini borligini anglaydi, Alloh taolo o'z Kalomidagi suralarning birini "Naml"-chumoli deb atashi bejiz emas. Demak, bu ma'rifat bizga hatto chumoli bilan ham qanday muomalada bo'lishimizgacha o'rgatadi. [3]

Eng avvalo, Vatanga bo'lgan muhabbat haqida fikr yuritsak: Vatanga muhabbat - nozik tuyg'u Inson ega bo'lgan narsalar ichida eng bebahosi - dini va Vatanidir. Biror inson yo'qki, Vatanini ulug'lamasa. Chunki Vatan uning kindik qoni to'kilgan, go'daklik chog'i o'tgan, ilk qadamlarini qo'ygan, yoshlik, keksalik xotiralari davrlarini surgan, muhrlangan, ota-bobolarining yurti, farzandu nabiralari ulg'aygan zamindir! [1] Islom dinida Vatan va unga bog'liq bo'lgan qadriyatlarni asrab- avaylash, himoya qilish madh etiladi. Insonning Vatani oldida bir necha haq vazifalari va bor. Avvalo, o'z Vatanga chin muhabbat qo'yish; Vatanini obod etish. Bu haqda Alloh taolo shunday marhamat qiladi: "U sizlarni yerdan paydo qildi va un sizni obodligi uchun qo'ydi" (Hud 61). [5]

Vatan obodligi taraqqiyot hamda yuksalishlarning asosi demakdir. Zero, Vatanni sevmoq iymondandir. Yuqorida keltirilgankek, Muborak dinimiz bo'lmish Islom dini Odam bolasini, insoniyatni faqatgina yaxshilik qilish, shirinsuxan bo'lish, birovni

og'irini yengil qilish, yetimni boshini silash, kambag'alga yordam berish, silayi rahm qilmoq, qo'shniga ozor bermaslik kabi juda ko'plab yaxshi amallarni qilishga buyuradi. Qur'oni karim va hadisi sharifda shunday bir insonga yaxshilik qilishga targ'ib qilinganki, bu yaxshilik evaziga jannat va'da qilingan. Bu esa ota-onaga yaxshilik qilishdir. Dunyoda ota-onaning hurmatini Islomchalik yuqori qo'ygan ta'limot va tuzum yo'qdir. Bu haqda Qur'oni karimda ko'plab oyatlar kelgan. Jumladan, Alloh taolo "Ankabut" surasining 8-oyatida marhamat qilib aytadiki: "Va insonga ota-onasiga yaxshilik qilishni tavsiya qildik." Ushbu oyatdan ko'rinib turibdiki, ota-onasi mo'min bo'lsalar ham, kofir bo'lsalar ham, kim bo'lishlaridan qat'i nazar ularga yaxshilik qilish musulmon farzandning burchi ekan [5]. Shuningdek, Ota-ona masalasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Oila" bobida shunday deyilgan: 66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.[4] Oila islomda muqaddas bir qo'rg'on sanaladi. Bu qo'rg'on but bo'lsa, jamiyat a'zolari har xil jismoniy, ma'naviy, axloqiy va ruhiy tajovuzlardan himoyalangan bo'ladi. Ayni paytda u ota-ona, jufti halol, farzandlar, aka-uka, opa-singillarni o'z bag'riga olgan farog'at maskani hamdir. Eng chiroyli muomala, hurmat-izzat va mehr-muhabbat oilaga qaratishi lozim. Konstitutsiyada: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OILA KODEKS.I Mazkur Kodeksning 5-moddasi. Oila to'g'risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir- biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron- bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir. [4]

Islom dinining go'zal jihatlaridan yana biri shuki, qo'shni bilan chiroyli muomalada bo'lishi ta'lim beradi. Chunki kishi hayotining osoyishtaligi, baxti, quvonchi ko'pincha qo'shni ila kechadigan aloqalariga ham bog'liq bo'ladi. Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo'lsa,

qo'shnisiga yaxshilik qilsin", dedilar. Qo'shniga yaxshilik qilish Allohga va qiyomat kuniga iymon keltirgan kishining sifati, belgisi, alomati ekan. Kim Allohga iymon keltirgan bo'lsa, qiyomat kundan umidvor bo'lsa, qo'shnisiga yaxshilik qilishi lozim ekan. Xalqimizda ham, "Qo'shni oshi - qo'shniga qarz", "Qo'shni qo'shnining bozori", "Qo'shni keldi - ko'mak keldi, Et keldi - suyak keldi", "Gilam sotsang, qo'shningga sot, Bir chetida o'zing o'tirasan" degan maqollarning ishlatilishi bejiz emas, albatta. [2] Shuningdek, islom dini buyurgan amallar bilan birgalikda qaytargan amallarni ham sanab o'tish muhim sanaladi. Jumladan, "Poraxo'rlik" xalq tili bilan aytganda, "Korrupsiya" haqida Qonun va din nima deydi? Poraxo'rlik-pora olish, pora berish, bu ishda vositachilik qilish kabi mansabdorlik jinoyatlari. Moddiy boylik yoki mulkiy manfaat evaziga muayyan harakatlarni bajarish yoki bajarmaslik bilan tavsiflanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 210-211-moddalarida "Poraxo'rlik" uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik qay tartibda belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. [6] Islom dinida esa: "Mol-dunyolaringizni oralaringizda nohaq - harom yo'llar bilan yemangiz! (Ya'ni, bir-biringizning haqqingizni yemang!) Va (gunoh qilayotganingizni) bilib turib, odamlarning mollaridan bir qismini gunoh - harom yo'llar bilan yeyish uchun (mollaringizni pora qilib) hokimlarga uzatmang! » (Baqara surasi, 188). «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar. «Bironta hukmda pora beruvchini ham, pora oluvchini ham Alloh la'natlasin» (Tabaroniy rivoyati). [7]

"Ma'rifat" tushunchasi xushmuomalalik, go'zal xulqning asosi hisoblanadi. Aslida mo'minlik ham shu. Mo'min, iymon, omon so'zlarining o'zagi ham bittadir. Arablar yuvosh tuyani "omun" deyishadi. Bu degani u bilan muomala qilayotgan inson tepish, tishlash kabi tuyaga xos ozorlardan omonda. Mo'min ham mana shu fazilatga ega bo'lishi kerak. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam: "Qo'lidan, tildan odamlar omonda bo'lgan inson mo'mindir», - dedilar. Musulmonlarga ozor berish va haqorat qilish haqida Alloh taolo marhamat qiladi: "Mo'min va mo'minalarga ular biron gunoh qilmasliklaridan turib ozor beradigan kimsalar ham bo'hton va ochiq gunohni o'z ustlariga olibdilar" (Ahzob surasi, 58). [2] Qonunda esa: O'zbekiston

Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi: 41-modda. Haqorat qilish. Haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. [4]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, daraja – ma'rifatdan, boylik esa ilmdandir. Islom dini inson manfaatlari va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi har qanday kashfiyot va yangiliklarni yuksak qadrlagan, qo'llab-quvvatlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Karimov. I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T.7.,1996. –B.84-102.
- 2.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
- 3.Islom ensiklopediyasi.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- 5.Qur'oni karim tafsiri.
- 6.<https://constitution.uz/oz/site/search?>
- 7.<https://islom.ziyouz.com>.

ISLOM DININING TARQALISHI VA ISLOM DINI G'OYALARINING TA'LIM-TARBIYADAGI AHAMIYATI

Davronova Feruza Rahmonovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchi,
s.f.f.d. (PhD)

Ubaydullayeva Manzura Temurmaliq qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. 1-bosqich talabasi

"Islom dini-bu ota-bobolarmiz dini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, oriyatli, nomusli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar".

I.A. Karimov

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo dini hisoblangan Islom dinining dunyoga tarqalishi va ta'lim-tarbiyadagi ahamiyatlari, hamda muqaddas kitobi sanalmish Qur'oni Karimning tarbiya va ta'limga bo'lgan ta'siri qay darajada ekanligini yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Din, arab tili, islom, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.), shariat, ta'lim va tarbiyaga oid hadislar, axloq va odob.

Аннотация: В этой статье будет объяснено распространение ислама, который считается мировой религией, и его значение в образовании, а также влияние священной книги, Священного Корана, на образование и обучение.

Ключевые слова: религия, арабский язык, ислам, наш Пророк Мухаммад (мир ему и благословение), шариат, хадисы по воспитанию и обучению, нравы и нравы.

Annotation. In this article, the spread of Islam, which is considered a world religion, and its importance in education, as well as the influence of the holy book, the Holy Qur'an, on education and training will be explained in this article.

Key words: Religion, Arabic language, Islam, our Prophet Muhammad (pbuh), sharia, hadiths on education and training, morals and manners.

Din - dunyo, inson, barcha mavjudodlarning kelib chiqishi, xudo yoki xudolar, g'ayritabiyy kuchlar mavjudligiga ishonishi hisoblanadi. Din muayyan ta'limotlar, his tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon

bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishing alohida ta'siri, uni idrok etishning o'ziga hos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonundir. Alloh taolo Qur'on tili etib tanlab olgan eng buyuk til. Haqiqatdan, u har bir musulmonning qalbiga yaqindir. Arab tili eng murakkab til bo'libgina qolmasdan, u juda boy til. Qur'oni karimning nozil bo'lishi natijasida mumtoz arab tili badiiyati yanada mukamallashgan. Islom dini VII asrda Arabiston yarim orolida (hozirgi Saudiya Arabistoni) paydo bo'ldi. [3] Bu orol arab tilida "Jazirat al-arab", ya'ni arablarning yarim oroli degan ma'noni anglatadi. Islom dinining paydo bo'lishi xususidan Islom man'balariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh taolo tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb hisoblanadi. Ialom talqinida dastlab, yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan Xudoga ishonganlar. Shu Xudo ya'ni Alloh odamlarga payg'ambarlar va elchilar yuborgan. Ammo insonlar payg'ambarlar ta'limotini buzganlar. Shuning uchun Alloh insonlarga oxirgi rasul etib Muhammadni (s.a.v.) tanladi, unga o'zining kalomi Qur'onni nozil qildi. Muhammad (s.a.v.) oldin o'z hamshaharlarini so'ng barcha arablarni ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish yagona xudo Allohga e'tiqod qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga tushush uchun bu dunyoda ezgu ishlar qilishga da'vat etadi.

Islom dini har qanday millatchilik kayfiyatidan yuqori turadigan olamshumul ta'limot. U barcha millatlarni birlashtirib, teng, do'st, yoru-birodar qilib, tinch-omon yashashlarini uqtirib keladi. Ayni paytda islom dinida razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, zulm kabi illatlar qoralanadi.

Tarbiya umr bo'yi davom etgan jarayon. Hayotdagi har bir kishi tarbiyaviy ta'sirga ega. U hayot maktabida tarbiyalanar ekan, tarbiyachi sifatida, tarbiya vositasi vositasida o'zi ham ijtimoiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Ta'lim-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va shaxs, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan shuningdek ma'lum bilimlar, ko'nikmalar, qadriyatlar, tajriba va kompetentsiya yig'indisi bo'lgan intellektual, ma'naviy-marifiy ta'limning yagona yo'naltirilgan jarayoni- shaxsning axloqiy va ijodiy, jismoniy va kasbiy rivojlanishi, uning ta'lim ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish. [5] Shariatimizda yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasini qachondan boshlash kerak degan savolga oila qurishdan oldin, ya'ni onasini yoki otasini tanlashdan avval deb javob beriladi.

Ulamolarimiz ta'kidlab aytishadiki, farzand hali dunyoga kelmay turib, uning kimlar orqali dunyoga kelishi mumkinligiga e'tibor berishni aytishadi. Bo'lg'usi ona

yoki ota tug'ilajak farzand tarbiyasining zohiriy asoschilaridir. Chunki farzand tug'ilganda uning tabiati sof holda tug'iladi va qaysi muhitda tarbiya ko'rib, o'sib ulg'aysa, o'sha muhitdan ta'sirlanadi. [1] Rasululloh sollallohi alayhi vassallam: "Har bir tug'ilgan go'dak Islom fitratida (ya'ni sof tabiatda) tug'iladi. Ota onasi uni yo yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi", - deb marhamat qilganlar. [6] Agar ota-ona diyonatli bo'lsa, farzandning tarbiyasida onalarning ta'siri katta bo'ladi. Bo'lajak ona ham o'z farzandining bo'lajak otasini tanlashi lozim. Bunda ham bo'lg'usi otaning din-u diyonati, axloq va odobiga qaraladi. Qur'oni Karimdagi oyatlardan biri madinalik sahobalar Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga kelib, uylari uzoqlik qilayotgani bois, uylarini sotib, yaqinroq joyga ko'chib kelishlari haqida shikoyat qilganlarida nozil bo'lgan. Ya'ni uylarni sotishga hojat yo'q. uzoqdan kelayotgan bo'lsalar, har bir bosilgan qadamlariga savob beriladi, mazmunida. "Biz ular keltirgan qadamlarni, bosgan qadamlarni ham yozamiz va ularning asarini ham yozamiz", - deya marhamat qilingan. Tafsirlarning birida bu oyatdagi "ularning izi" degani bu asarimiz, avlodlarimizdir, degan fikr bildirilgan. Allohning bu oyatidan tushunamizki, Alloh nafaqat amalimizni, balki avlodlarimiz amalini ham o'zimizga yozadi. Shuning uchun tarbiya vojib bo'ladi. Orqamizdan yaxshi tarbiyali farzand qoldiraylikki, ortimizdan faqat savob borsin, yomonlik bormasin, zotan, Islomda tarbiya vojibdir. Tarbiya dinimizda vojib amal, deb e'lon qilingan. Biz eng ko'p ishlatadigan tarbiya, murabbiy so'zlari Allohning "Rob" ismi bilan bitta o'zakdan olingani tarbiyachilar mas'uliyatini oshirsa kerak, deb o'ylayman. Demak, bu yengil ish emas. Tarbiya - faqat ta'sir, tartib yoki nazorat, taftish emas, u ilohiy narsa. Tarbiya farzandni doim nazoratga olish, kuzatib borish degani, chunki Alloh taolo surai Fotihaning birinchi oyatida olamlarning robbisi Allohga maqtovlar bo'lsin, degan. Bu oyatda Alloh Rob ismini keltirgan. "Robbil a'lamiyn" butun olamlarning murabbiysi degani. Agar Alloh murabbiyligi, ya'ni nazorati, kuzatuvini lahza to'xtatsa, odamlar izdan chiqib ketadi.

Axloq (arabcha xulq-atvor demakdir) – ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. [2] Axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq shaxs tarqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, Qur'on kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Islom dini qanchalar go'zal din ekanligini har bir musulmon ich-ichida his qiladi. Islom dini va uning muqaddas kitobi Quroni Karim insonni hech qachon yomonlik tomon boshlamaydi, aksincha, yaxshilik sari

yetaklaydi. «Qur'on»ning axloqiy qimmatini haqida fikr yuritilgan ekan, uning insonning ma'naviy kamolga etishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bolamiz.[1]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti"
2. Anvar Ahmad Nozim Mamatoxunov "Arab tili". 1-kitob. T.: 2013.
3. Sulaymon Amirkulovich Haydarov. Tarix darslarida integratsiyalashgan texnologiyalardan foydalanish, 2020.
4. Nomozov, M. M. O., Haydarov, S. A. (2021). O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlar.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2000 - 2005).
6. Qur'oni karim tafsiri.

Hozirgi o'zbek adabiy tili rivojida shevalarning hissasi.

Ishquvvatov Mamarasul

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Ergasheva Dilrabo**

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilining boyishida o'zbek shevalarning tutgan o'rni va ularning tilimizning sofligini saqlashda muhim manba ekanligi to'g'risida fikrlar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: Qarluq-chigil-uyg'ur, qipchoq, o'g'uz, lahja, A.K. Borovkov, o'zlashma so'zlar, neologizmlar, tashqi manba, ichki manba, milliy til, adabiy til.

Barchamizga ma'lumki, har bir tilning boyishi ikki xil yo'l bilan amalga oshadi. Birinchisi, tashqi manbalar orqali, ikkinchisi, ichki manbalar orqali. Tashqi manbalar orqali boyishga bir davlatning boshqa davlatlar bilan siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy axborot almashinuvlari natijasida kirib kelgan o'zlashma so'zlar tushunilsa, ichki manbalar orqali boyish deganda esa har bir davlatning o'z shevalari yoki yasama so'zlar orqali boyishi tushuniladi. Chet eldan kirib kelayotgan o'zlashma so'zlar, ya'ni fan tili bilan aytganda neologizmlar tilning boyishida ma'lum bir hissasi ham bo'lishi mumkin, ammo bunday so'zlarning o'zimizning adabiy tilimizda yoxud shevalarimizda muqobili bo'la turib hech qanday o'zgartirishlarsiz qabul qilishimiz tilimizning boyishidan ham ko'proq milliy tilimizning putur yetishiga olib keladi deb o'ylayman. Mening fikrimcha, har bir milliy tilning o'ziga xosligini, milliyiligini saqlashda ko'proq shevaga xos so'zlarni adabiy tilga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbek tili ham ko'p yillar davomida turli tashqi va ichki manbalar orqali boyib kelayotgan, butun dunyoda o'z mavqeini saqlab kelayotgan tillardan biridir. O'zbek tili ko'p dialektli tildir. Bu uning murakkab tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi, bugungi o'zbek millati o'tmishda xilma-xil etnik tarkibga ega bo'lganligi bilan belgilanadi.

O'zbek milliy tilini tashkil etuvchi turli-tuman shevalarni uch lahjaga birlashtirish mumkin. Bular: **1) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi; 2) qipchoq lahjasi; 3) o'g'uz lahjasi.**

A.K. Borovkov qayd qilib o'tganidek, o'zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga har jihatdan asos bo'lgan deb aytib bo'lmaydi. Buning bosh sababi shundaki, hozirgi o'zbek milliy adabiy tili uzoq adabiy ishlov an'anasining (jumladan, eski turkiy, eski o'zbek, yangi o'zbek adabiy tillarining) bevosita davomi va XX asrda u (yozuv va adabiy ishlov an'anasiga ega bo'lmagan xalqlarda bo'lganidek) tamoman

yangi hodisa sifatida yuzaga kelmagan: milliy adabiy til kamida ming yillik adabiy ishlov mahsuli. O'zbek tilining barcha lahjalari o'zbek tilining taraqqiyotiga ma'lum bir darajada hissa qo'shgan. Birining adabiy tilga ta'siri bir sohada kuchiroq bo'lsa, boshqa sohada o'zga bir shevalar guruhining ta'siri ko'proq seziladi. Masalan, Andijon, Farg'ona shevalari o'zbek tiliga xos eng ko'p tarqalgan grammatik shakllardan birini – hozirgi zamon fe'lining (-yap) affiksi vositasida yasaluvchi shaklini bergan deyiladi. Lekin bu shakl qipchoq lahjalarida ham xuddi shunday qo'llanadi. Qipchoq shevalarining adabiy til lug'atini, xususan, uning chorvachilik atamalar tizimini rivojlantirishda, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlarini boyitishda katta hissasi bor. Masalan, **qirqim, o'tov, to'l, sarimoy, chakki, chalop, uloq, sovliq** kabi umumiy va chorvachilik atamalari, **quyruq, bovor, patir, tovoq, kulchatoy, lochira** singari pazandachilik atamalari adabiy tilga qipchoq shevalaridan kirib kelgan.

Adabiy tilning rivojlanishiga o'zbek tilining o'g'uz lahjasi ham ma'lum darajada hissa qo'shgan. Buning uchun adabiy tildagi **yoshulli, o'g'lon, buyon, qaydin, qorago'z** kabi qator so'zlarni misol keltirish kifoya. [1:16-17-18-b]

Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo'lsa, Adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtayi nazardan umumlashtirish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlar (masalan, Italiya, Indoneziya va boshqa) da shevalar adabiy til bilan teng suratda qo'llanmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog'lanadi. Ammo bu bog'lanish bir tomonlama. Chunki til uslubiyatlarining o'zi adabiy til ko'rinishlari hisoblanadi. Ular tarixan shakllangan, muayyan belgilar majmuidan iborat bo'ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Lekin, bu takroriy belgilarning ma'lum shaklda birikishi va vazifasining o'ziga xosligi bir uslubning ikkinchi uslubdan farqini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent - 2009.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent - 2000.
3. M.Jo'rayeva, I.Xidirova "Qoyalar ham yig'laydi" asarida qo'llanilgan dialektizmlarning leksik-semantik tahlili. Development of pedagogical technologies in modern sciences. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7625018>
4. G.Raxmonjonova, I.Xidirova "Chortoq so'zining kelib chiqishiga oid ilmiy qarashlar. Eurasian journal of academic research. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7157531>

BUYUK AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalar

Alimardonov Azizbek

Ne'matov Saidarvarxon

Annotatsiya: Amir Temur va zamondagi davlatchilik siyosati, boshqaruv tizimini ko'rib chiqmoqchi ekanmiz, davlat, davlatchilik mohiyatida muayyan bir makon va jamiyatda mavjud turli imkoniyatlarni shu yerlik xalq manfaati yo'lida yuzaga chiqaruvchi tashkilotchilik yotganini eslatib o'tish g'oyatda muhimdir.

Kalit so'z: Amir Temur, devon, devonbegi, sardi azam, vaziri sipoh, tijorat vaziri, ra'iyat, devoni mushrif, arzbegi, Shayx-ul islom

Bu siymo mard, tanti, halol va g'ayratli xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, imon-oqibatli bo'lishda, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag'ishlaydi.

Islom KARIMOV

Amir Temur davlat boshqaruvini amalga oshirsada, biroq o'sha davr davlatchilik an'alariga asosan davlatning rasmiy hukmdorlari Chingizxon xonadoniga mansub Suyurg'atmish (1370-1388-yillar) va uning o'g'li Mahmudxon (1388-1402-yillar) hisoblanar edi. Rasmiy hujjatlar shu xonlarning nomidan bitilib, tangalarda ham shu xonlarning nomi aks ettirilsa-da, aslida amir darajasida bo'lgan Amir Temur tomonidan davlat boshqaruvining barcha sohalari to'laligicha amalga oshirilgan. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, viloyat va tumanlarda hokimiyat markaziy hukumat yoki ulus hukmdorlari tomonidan tayinlangan mansabdor (dorug'a)lar qo'lida bo'lgan. Markaziy hukumatni asosan uch bosh davlat muassasasi: Devoni oliy (oliy ijroiya organi), Devoni mol (moliya ishlari boshqarmasi) va Devoni tovochi (harbiy ishlar boshqarmasi) idora qilgan. Din va shariat bilan bog'liq bo'lgan masalalar, shuningdek, sud ishlari qozi va shayxulislom qo'lida bo'lgan.

Amir Temur saltanati davlat tuzilishining qonun-qoidalari jihatidan Musulmon Sharqida hukm surgan davlatlardan deyarli farq qilmasada, boshqaruv tizimlari Turkiston va Movarounnahr davlatchiligining asriy an'analari, fath etilgan mamlakatlarning madaniy ta'siri asosida bir qator yangi tartib-qoidalar bilan takomillashtirildi. Mamlakatning asosiy markaziy boshqaruvi dargoh va devon tomonidan boshqarilib, unda yetti nafar vazir faoliyat yuritgan, devonda to'rt vazir markaziy hokimiyat ishlarini amalga oshirsa, qolgan uch nafar vazirlar viloyatlar boshqaruvi nazorati bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirganlar. Bular quyidagilardir:

Ulardan birinchisi-mamlakat va ra'iyat ishlari bo'yicha vazir viloyat va tumanlardan to'planadigan hosil, soliq-o'lponlar hamda mamlakatdagi obodonchilik ishlari bilan shug'ullangan. Ushbu vazirlik mamlakatdagi umumiy holatni boshqargan va nazorat qilgan.

Ikkinchisi- vaziri sipoh, ya'ni harbiy ishlar bo'yicha vazir askarlar maoshi, oziq-ovqat va qurol-yarog'lari ta'minoti bilan mashg'ul bo'lgan.

Uchinchisi-tijorat vaziri savdogarlarning mol-mulklaridan olinadigan zakot va boj, chorvachilikdan yig'iladigan daromad, egasiz qolgan mol-mulknini tasarruf etish, meros va merosxo'rlar bilan bog'liq masalalarni hal etish kabi ishlarni bajargan.

To'rtinchisi, saltanat ishlarini-yurituvchi vazir, ya'ni moliya ishlari vaziri davlat xazinasidan sarf etiladigan xarajatlar, umuman saltanat kirim-chiqimlarini boshqargan. Ana shu to'rt vazirdan tashqari, chegara viloyatlari va tobe' mamlakatlar ishlarini nazorat qilib turish uchun maxsus uch nafar vazir tayin etilgan, ular mazkur viloyat va mamlakatlardan davlat xazinasiga kelib tushadigan daromadlarni nazorat qilish va ularga bog'liq moliyaviy masalalar bilan mashg'ul bo'lgan. O'z navbatida, ular saltanatning bosh nazorat hay'ati -«xolisa»ni tashkil etishgan.

Beshinchi, adliya vaziri bo'lib, bu vazir devoni kuzot (qozilar devoni)ga rahbarlik qilgan.

Oltinchi, devoni mushrif – mansabdorlar faoliyatini nazorat qilish ishlari.

Yettinchi, tashqi ishlar vaziri (devoni rasoil) – mamlakatlararo savdo va elchilik munosabatlarini boshqargan. Mazkur yetti vazir devonbegiga bo'ysungan va davlatning muhim moliyaviy ishlarini u bilan bamaslahat olib borishgan(80). Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, Amir Temur va Temuriylar hukmronlik qilgan davrda saltanat devonxonasida Amir Dovud, Jaloliddin Feruzshoh, G'iyosiddin Shoh Malik, Alouddin Aliko Ko'kaldosh va Alisher Navoiydek dono va tadbirkor devonbegilar bu oliy mansabda faoliyat ko'rsatganlar, mamlakat obodonligi yo'lida ko'p xayrli ishlar qilganlar. Shu bilan birga devonxona huzurida arzbegi, sadri a'zam, shayxul islom va ahdos qozisi kabi lavozimlar joriy etilgan edi.

Arzbegi- fuqaro va sipohiylardan tushadigan arz va shikoyatlar hamda mamlakatdagi ahvol to'g'risida ma'lumot to'plash, bu borada oliy dargohga muntazam axborot yetkazib turish kabi vazifalarni bajargan.

Sadri a'zam, ya'ni bosh sadr mamlakatdagi barcha vaqflarni boshqargan. U masjid, madrasa, maqbara va xonaqohlar tasarrufidagi vaqf xo'jaliklarining ahvolini nazorat qilish, davlat va yer egalari tomonidan vaqf etilgan yer va mulklarni qayd etish, vaqfnomalar tuzib, ularni qonuniylashtirish bilan shug'ullangan.

Shayx-ul islom mamlakat aholisining turli ijtimoiy tabaqalari o'rtasida shariat ahkomlari va islom aqidalarining o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishini nazorat qilgan. Adliya ishlari bo'yicha belgilangan qoziyul quzzot, ya'ni davlatning bosh qozisi «ahdos qozisi» nomi bilan yuritilib, u fuqaro ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Bulardan tashqari, saltanat mahkamalarida kirim-chiqimlarni va kundalik xarajatlarni qayd etuvchi maxsus kotib tayinlangan va qurol-yarog'lari ta'minoti bilan mashg'ul bo'lgan.

Mulkchilik va soliq ishlari vaziri – zakot va boj, soliqlar ishlarini boshqargan va nazorat qilgan.

Saltanat ishlarini yurituvchi vazir (saroy vaziri) – saltanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan qilinadigan sarf-xarajatlar, davlat moliyaviy tizimining nazoratchisi. Qaysi vazir soflik, to'g'rilik bilan vazirlik ishiga kirishib, davlatning moliya ishlarini diyonat, savob bilan, nafsi buzuqlik qilmay, omonatga xiyonat etmay bajarar ekan, unday vazirni eng oliy martabalarga yetkazsinlar. Qaysi vazir buzuqlik qilib, yomonlik yo'li bilan mamlakat ishlarini yurgizar ekan, ko'p o'tmay unday saltanatdan xayr-u barakat ko'tariladi.

Xulosa qilib aytsak, O'zbekistonda qadimdan rivojlanib kelayotgan davlatchilik tarixi Sohibqiron Amir Temur davrida yanada yuksaldi. Boshqaruv sohasida buyuk bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, nafaqat boshqaruv jihatdan balki siyosiy jihat, tashqi va ichki aloqalarda ham rivojlangan. Amir Temur davridagi boshqaruv sohasidagi islohotlar negisi keyingi asrlada ham xonliklar davrida ham qo'planilib ishlatilib kelgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo “ O'zbek davlatchiligi tarixi “ . -Toshkent: Sharq. -2000
2. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov “ Vatan tarixi”. T.: 2010
3. Sagdullayev, Aminov, Mavlonov, Norqulov “ “O'zbekiston tarixi: davlat va jamiat taraqqiyoti “. T.: 2000
4. Eshov, Odilov “ O'zbekiston tarixi “. T.: 2014

ADVANCES IN INTERACTIVE FOREIGN LANGUAGE TEACHING AT ACADEMIC LYCEUMS

Berdialiyeva Gulnoza

4th course Second English faculty Uzbek state world languages university

Annotation. The purpose of the following article is to examine how technology is used to teach English in nations where it is not a first language. One of the best contemporary and technological approaches to learning a language is through interactive methods, which are particularly methodologically advantageous for the development of communicative competence in students at the stage of teaching foreign languages and for the formation of sustainable motivation, the development of cognitive interests in students at academic lyceums, intellectual skills of critical thinking, and abilities of self- and mutual aplomb.

Keywords: English, approach, communicative competence, development, learning, method, technological approaches, and education.

Introduction. First and foremost, the development of cutting-edge methods for teaching foreign languages is motivated by the need to resolve the current educational crisis, which would aid in the development of new types of professionals. Because the new XXI century places various advanced demands on university graduates more than the technocratic society of the XX century, the introduction of new technologies is also of utmost importance¹.

The teaching methods of the previous century, which were based on scientific logic and the tenet “from knowledge to skills”, should be replaced by methods based on the laws of students’ cognitive activity and orientation in the classroom, i.e. on the attainment by graduates of the pinnacles of professional, creative, spiritual, and moral other activities. All of this needed the expansion of the English language’s functions as an academic subject, taking into account the finest global experience in teaching English and the socio-cultural aspects of its study. It also created the task of teaching English in the country with fresh material. Today, in the practice of teaching languages of international communication, the tasks of teaching English as a means of intercultural communication, as a tool for the mutual enrichment of peoples, countries, and continents, and as a way to understand the accomplishments of national and universal culture, as a way for citizens of their country and members of the global community to understand themselves are important².

Аннотация: Статья посвящена реформам и проектам которые реализуются в Узбекистане по увеличению доли возобновляемой энергии, направления использования возобновляемых источников энергии, законодательные и организационно-правовые механизмы, международное сотрудничество, а также развитие социально-экономических секторов и координации реализации единой государственной политики в области развития использования альтернативных источников. Так же выделен анализ практической работы, проводимой в рамках программы обеспечения населения чистой зеленой энергией.

Ключевые слова: возобновляемая, альтернативная, зеленая энергетика, зеленая экономика, непрерывное снабжение, регулирование, систематизация, согласование, продвижение законодательных документов.

Annotation: This article is devoted to the reforms and projects that are being implemented in Uzbekistan to increase the share of renewable energy, directions for the use of renewable energy sources, legislative, organizational and legal mechanisms, international cooperation, as well as the development of socio-economic sectors and coordination of the implementation of a unified state policy in the development of the use of alternative sources. An analysis of the practical work carried out as part of the program to provide the population with clean green energy is also highlighted.

Key words: renewable, alternative, green energy, green economy, continuous supply, regulation, systematization, harmonization, promotion of legislative documents.

XXI асрда – иқлим ўзгариши, озон қатламининг емирилиши ва атроф муҳит ифлосланиши оқибатида бутун инсоният олдида экологик хавфсизлик масаласи долзарб муаммога айланди. Мамлакатлар олдида тез суръатларда ўсиб бораётган аҳолини озик-овқат ва бирламчи хом ашёлар билан таъминлаш вазифаси турибди. Ҳозирги кунда энергия таъминоти бирламчи заруратлар қаторидадир. Сабаби - ишлаб чиқариш суръати, илғор технологияларни яратиш ва улардан фойдаланиш кўлами, аҳолига қулай шарт-шароитлар яратиш ва умуман ривожланиш, том маънода, энергия таъминоти билан чамбарчас боғлиқ.

Пандемиядан сўнгги иқтисодий тикланиш, “савдо” урушлари ва геосиёсий қарашлар қайта кўриб чиқиляётган ҳозирги даврда кўпчилик ривожланаётган ва айрим ривожланган мамлакатлар учун ҳам энргия таъминоти масаласи кўндаланг туриб қолди..

Айни дамда ёнилғининг қазилма турлари — кўмир, нефть, табиий газ ва уран - анъанавий энергия манбалари сифатида жаҳон энергетика балансининг асоси ҳисобланади.

Ушбу қазилма бойликлар вақти келиб тугаши аниқ бўлган табиий ресурс бўлиши билан бир қаторда, айрим мамлакатлар томонидан геосиёсий дастак сифатида тобора кенг ишлатилмоқда, шунингдек уларни қайта ишлаш оқибатида атмосферага кўп миқдордаги захарли моддалар ажралиши, атроф муҳитга сезиларли зарар етказмоқда.

Хўш энергия таъминотига эҳтиёж ортиб бораётган даврда, анъанавий энергетика тизимидан воз кеча олмас эканмиз, унда бу масаланинг ечими қандай?

Бу борада, 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида энергия ресурслари ва табиий газ бозорларини ижтимоий ҳимоя кафолатларини белгилаган ҳолда эркинлаштириб, соҳага хусусий инвестицияларни кенг жалб қилиш масаласи алоҳида таъкидлаб ўтилган.

Тараққиёт стратегиясида, бу борада қуйидаги асосий вазифалар белгиланган:

- иқтисодиётни электр энергияси билан узлуксиз таъминлаш ҳамда «Яшил иқтисодиёт» технологияларини барча соҳаларга фаол жорий этиш. Бунда, иқтисодиётнинг энергия самарадорлигини 20 фоизга ошириш, 2026 йилга келиб электр энергияси ишлаб чиқариш кўрсаткичини қўшимча 30 миллиард киловатт соатга ошириб, жами 100 миллиард киловатт соатга етказиш;

– 2026 йилга қадар қайта тикланувчи энергия манбалари улушини 25 фоизга етказиш эвазига йилига қарийб 3 миллиард куб метр табиий газни тежаш, уй-жой-коммунал хўжалиги, ижтимоий соҳа объектлари ва бошқа соҳаларда қайта тикланувчи энергия манбаларини кенг жорий этиш ва энергия самарадорлигини ошириш;

– энергия тежайдиган ускуналар ва қурилмаларни ишлаб чиқаришни кенгайтириш ва маҳаллийлаштириш, шу жумладан, муҳандислик марказларини яратиш;

– иқтисодиёт тармоқларининг ҳавога чиқарадиган зарарли газлар ҳажмини бир бирлик Ялпи ички маҳсулот ҳисобида 10 фоизга қисқартириш.

Бизнинг назаримизда, ушбу масаланинг ечими қайта тикланувчи энергия манбаларини шакллантириш ва улардан самарали фойдаланишдадир. Бунда, қуйидаги уч йўналишдаги ишларни ҳамжиҳатликда олиб бориш мақсадга мувофиқ бўлади:

биринчи тарафдан, йирик ҳажмдаги генерация қувватларини яратиш ва мамлакатнинг умумий энергия тизими пойдеворини турли бир-бирига боғлиқ бўлмаган энергия манбаларига асослантириш;

иккинчи тарафдан, аҳоли ва хўжалик юритувчи субъектлар ўзларини кичик ва ўрта қувватли муқобил энергия манбалари билан таъминлашларини рағбатлантириш;

учинчи тарафдан, бино ва иншоотларнинг энергия самарадорлигини ошириш бўйича комплекс чораларни кўриш.

Қолаверса, бугунги кунда кичик ва ўрта муқобил энергия манбаларини кенг жорий қилиш ҳисобига узоқ қишлоқ ва овулларни ҳам барқарор энергия манбалари билан таъминлаш имконияти мавжуд.

Бу имкониятдан самарали фойдаланиш учун “давлат – хусусий сектор – аҳоли” тамойили асосида ҳамжиҳатлик ва тегишли рағбатлантириш механизмларини жорий этишимиз зарур.

Халқаро миқёсида қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш ҳажмида “яшил” қувватлар улуши охириги беш йилда 2 баробарга ўсганлигини кўришимиз мумкин. 2021 йилда том устига ўрнатилган қуёш панеллари ҳисобига ишлаб чиқарилган электр энергияси ҳажми 100 гигаватт қувватдан ошди. 2022 йилда эса бу борадаги рекорд янада янгиланди.

Қайта тикланувчи энергия салмоғини ошириш бўйича **Ўзбекистонда қандай ислохотлар ва лойиҳалар амалга оширилмоқда?**

Юртимиз ҳудудида қайта тикланувчи энергия манбаларини ишлаб чиқарувчи корхоналардан олинган маълумотга кўра, сўнгги икки йилда 4,7 мегаватт қувватга эга 1 минг 469 та кичик қуёш электр станциялари ва 4,7 мегаватт ҳажмли 1 минг 613 та қуёш сув иситкичлари ўрнатилган. Ушбу рақамни, мамлакатимиздаги уй-хўжаликлари сонига солиштирадиган бўлсак, бу кўрсаткич қанчалик камлигини кўришимиз мумкин.

Бу эса ҳали ишга солинмаган имкониятлар жуда кўплигини англатади. Шу боис, Ўзбекистонда муқобил энергия ускуналарини кенг жорий этиш ва амалда қўллаш борасидаги ёндашувлар тубдан ўзгартирилмоқда.

Таъкидлаш жоизки, 2015-2019 йилларда иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия сифimini қисқартириш, энергияни тежайдиган технологиялар ва тизимларни жорий этиш чора-тадбирлари Дастури, иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия тежамкорликни таъминлашга қаратилган кенг қамровли чора-тадбирларни амалга ошириш билан бир қаторда, қайта тикланувчи энергия ресурсларини жорий этиш ва татбиқ этиш борасидаги ишларга тамал тошини қўйди десак бўлади.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 майдаги “2017-2021 йилларда қайта тикланувчи энергетикани янада ривожлантириш, иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида”ги қарори юртимизда қайта тикланувчи муқобил энергия манбаларидан фойдаланишнинг ҳуқуқий асосини яратиш бўйича қўйилган илк қадам бўлди.

Дарҳақиқат, “Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунида муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш соҳасидаги муносабатлар, жумладан қонунчилик тартибга солинди ва мужассамлаштирилди. Унда, мамлакатнинг энергетика хавфсизлигини мустаҳкамлаш, ёқилги энергетика балансини муқобил энергия ҳажмини кўпайтириш эвазига иссиқлик энергияси ва биогаз ишлаб чиқариш қисмини диверсификациялаш, соҳага инновацион технологиялар ва илмий-техникавий ишланмаларни жорий этиш ҳамда маҳаллийлаштиришни рағбатлантириш, қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлаш аниқ ифода этилган.

Шунингдек, Қонунда қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш соҳасидаги илмий-техникавий ва инновацион таъминот, ҳамда қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш соҳасидаги имтиёзлар ва преференциялар ўз аксини топган.



Ушбу ҳукукий нормаларни ҳаётга жадал татбиқ этиш мақсадида, қатор меъёрий ҳужжатлар қабул қилинган, жумладан:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 9 сентябрдаги “Энергия тежовчи технологияларни жорий қилиш ва кичик қувватли қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш бўйича қўшимча чоратadbирлар тўғрисида”ги ПФ-220-сон Фармонида аҳоли ва тadbиркорлик субъектлари томонидан қайта тикланувчи энергия манбаларидан кенг фойдаланишни рағбатлантириш учун уларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмлари жорий этилди.

Шунингдек, ушбу Фармонда хусусий ва маъмурий-маиший иншоотларни қайта тикланувчи электр ва иссиқлик энергиялари билан таъминлашни рағбатлантириш мақсадида, куёш ёки шамол электр станциясини ўрнатганлик учун ҳамда куёш сув иситиш қурилмаларини ўрнатганлик учун компенсациялар миқдори акс эттирилган. Шунингдек, хусусий инвесторларга қуввати 500 киловаттгача бўлган микро гидроэлектростанцияларини қуриш бўйича таклифлар ва лойиҳалар кўрсатилган.

Қолаверса, Энергетика вазирлиги ҳузуридаги Бюджетдан ташқари тармоқлараро энергияни тежаш жамғармаси тўғрисидаги Низомда Жамғарманинг вазифалари, ҳуқуқ ва мажбуриятлари, шунингдек, маблағларни шакллантириш, фойдаланиш ҳамда Жамғармани бошқариш тартиби белгиланган.

Шу билан бирга, Фанлар академиясининг “Халқаро куёш энергияси институти” МЧЖ негизида Энергетика вазирлиги ҳузурида Қайта тикланувчи энергия манбалари миллий илмий-тадқиқот институти ва унинг тузилмасида Водород энергетикаси илмий-тадқиқот маркази ҳамда Қайта тикланувчи ва водород энергетикаси технологияларини синаш ва сертификатлаш лабораторияси ташкил қилинган. Бундан асосий мақсад республикада водород энергетикаси инфратузилмасини барпо этиш, қайта тикланувчи ва водород энергетикаси соҳаларида илмий ва амалий изланишлар самарадорлигини ошириш, инновацион технологияларни ишлаб чиқишга кенг жорий этишдир.

Қайта тикланувчи энергия қурилмаларидан фойдаланишни қўллаб-қувватлаш мақсадида аҳолининг маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан ишлаб чиқарилган қайта тикланувчи энергия манбаларининг қурилмаларини харид қилиш харажатларининг бир қисмини компенсация қилиш ёки бўлиб-бўлиб тўлаган ҳолда сотиб олиш тартиби тўғрисидаги Низом тасдиқланган.

Шунингдек, мамлакатимиздаги бир қатор банкларда энергия тежаш ва қайта тикланувчи энергия манбалари соҳасида ускуналар харид қилиш учун паст фоизли, 5 йиллик муддатли “яшил” кредитлар бериш бошланди.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, электр энергияси бизга ҳар куни керак. Шундай экан табиат инъом этган қайта тикланувчи манбалардан кенг фойдаланиш айти муддао бўлади. Ҳар биримиз, “яшил” технологиялардан фойдаланганимиз сари, табиий манбалар тежалади ва табиатга етказилаётган зарар миқдори камаяди. Энергетика тармоғи юкламаларини енгиллаштириш, аварияларнинг олдини олиш, тармоқлардаги технологик йўқотишларни пасайтириш имконияти ошади. Энг муҳими, экологик тоза, “яшил” энергияга ўтиш жараёни фаоллашади. Бундай сабъ-ҳаракатлар нафақат бугун, балки келажак учун жуда муҳим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш тўғрисида” 21.05.2019 йилдаги ЎРҚ-539 –сон Қонуни (Қонунчилик палатаси томонидан 2019 йил 16 апрелда қабул қилинган, Сенат томонидан 2019 йил 3-майда маъқулланган)
3. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 10 июнь куни қайта тикланувчи энергиядан фойдаланишни кенгайтириш масалалари бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилиши (<https://yuz.uz/news/qayta-tiklanuvchi-energiyadan-foydalanish-umummilliy-ahamiyatga-ega>)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йилнинг 5 майдаги ПҚ-2343-сонли қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 9 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги ҳузуридаги Бюджетдан ташқари тармоқлараро энергияни тежаш жамғармаси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 640- сон қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 апрелдаги ПҚ-5063 – сон қарори ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 24 мартдаги “Энергетика вазирлиги ҳузуридаги Қайта нувчи энергия манбалари миллий илмий-тадқиқот институти ў фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 127-сон қарори.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 5 октябрдаги 568-сон қарори.
8. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/10226/>

9. <https://kun.uz/news/2022/01/27/markaziy-osiyo-davlatlarining-energetika-tizimlari-ozaro-qanday-boglangan>
10. <https://yuz.uz/news/energiyani-tejash-boyicha-takliflar-korib-chiqildi>

Pedagogik metodlar va ulardan foydalanish usullari

Mirzaaliyeva Maftuna ¹

Boyhonova Farzona ²

Rashidova Gulnoza³

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali 3-kurs talabalari^{1/2}

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali pedagogika fani domlasi³

Tayanch sōzlar: Tadqiqot, bilish, test, metod, ilmiy asoslar, o‘zgarishlar, psixika, subyekt, obyekt, laboratoriya, shaxsning shakllanishi.

Genetik metod bilan tadqiqot davomida tugallangan ma'lumotlar yaxlit holda, maqsadga muvofiq tarzda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan ichki, jamiki obrazlarning rivojlanishi, faoliyat va bilish jarayonlarining o‘zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif va tavsif berishdir. Shuningdek, bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo‘lish davri, bosqichi hamda ba'zi mashaqqatli daqiqalarga, holatlarga qo‘shimcha sharhlar berish imkoniyati tug‘iladi. Genetik metodga asosanib psixik o‘zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog‘liqligi ildizi aniqlanadi. Donalash metodi tadqiqot ob'ektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha ozgarishlardagi oziga xoslik, ozaro aloqa, ozaro ta'sir va uygunlikning ozaro boglanishlari organiladi. Jumladan, inson xulqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda, birgalikda tadqiq qilinishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining usuli ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning ozaro bogliqligi asoslab beriladi. Kuzatish metodi - ikki xil bo‘lib, ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (ichki) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:a) kuzatishning maqsad, vazifasi belgilanadi;b) kuzatilayotgan ob'ekt tanlanadi;v) tadqiqot otkazish vaqti rejalashtiriladi;Tajriba yoki eksperiment metodi - oz navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy tajriba metodlarining ilmiy asoslarini 1910 yilda rus psixologi A.F.Lazurskiy tomonidan ishlab chiqilgan. U kichik maktab yoshidagi bola shaxsining shakllanishini o‘rganish maqsadida ushbu metodni qollagan. Tabiiy metoddan ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, oqituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik ozgarishlari, ozaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish jarayonida foydalanish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini organishdan sinaluvchilarning ozlari bexabar bolishi, ta'lim jarayonida

berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir otkazish, kundalik mehnat doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Laboratoriya (klinika) eksperimenti metodining (1879 yili V.Vunt kiritgan) asosiy xususiyati, shundan iboratki bunda o'rganilishi lozim bo'lgan psixik jarayonlarning (masalan idrok, diqqat, xotira kabi) qanday sharoitda qachon yuz berishini kutib o'tirmasdan tekshiruvchi kishi (eksperimentator) sinalayotgan odamda shu jarayonlarni maxsus tarzda ishga soladi. Bundan tashqari laboratoriya eksprementi sharoitida eksperimentator organayotgan har bir psixik jarayonni hohlagan marta, ya'ni takror-takror yaxshilab sinab korishi mumkin. Bu murakkab psixik jarayonlarning tabiatini organishda katta qulaylik tugdiradi. Birinchidan, istalgan psixik jarayonni hohlagan paytda yuzaga keltirish vaqtini tejash imkonini bersa, ikkinchidan har bir psixik jarayonni takror-takror yuzaga keltirib, sinchiklab organish bu jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Test metodi - "Test" inglizcha soz bo'lib sinash tekshirish demakdir. Shaxsning aqliy osishini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qollaniladigan qisqa standart masala, topshiriq test deb ataladi. Test ayniqsa, odamning qanday kasbni egallashi mumkinligi, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yigilgan psixologik materiallarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qilishga bogliqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayeva, M. (2021). O 'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4).
2. Rahmatullayeva, M. (2021). XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4).
3. Rahmatullayeva, M., & Ahmedova, L. (2023). GO 'DAKLIK DAVRI TO'G'RISIDAPEDAGOGIK ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).
4. Rahmatullayeva, M., & Karimova, N. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMMUASSALARI BOSHQARUVINING DOLZARB MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).
5. Rahmatullayeva, M., & Toshbekov, H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR VA UNI KORREKSIYALASH YO'LLARI. Журнал Педагогика и психологии в

современном образовании, 3(2). YRahmatullayeva, M., & Toshbekov, H. (2023). PSIXOLOGNI PSIXOMETRIK JIHATIDAN TAYYORLASH TALABLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

6. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Anvarova, S. (2023). OLIY O'QUV YURTLARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK JIHATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

7. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Xaydarqulov, H. (2023). O 'QITUVCHI VA TALABALAR O'RTASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).

**“YANGI TAXRIRDAGI KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQLARINI
KENGAYTIRISH”**

Sattorova Muxarram Abdurazzakovna

**Toshkent shahar yuridik texnikumi Jinoiy huquqiy fanlar kafedrası
o’qituvchisi.**

ANNOTATSIYA:Ushbu maqolada inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi, inson huquqlari va qadr qimmatining oliy ne’mat ekanligi, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy islohotlarining inson qadriga ta’siri va ayrim xorijiy mamlakatlarning konstitutsiya tizimi bilan qiyosiy-huquqiy tahlili ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar. Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy islohotlar, inson qadri, inson huquqlari, adolatlilik, demokratiya.

Umuman, inson huquqlari va erkinliklarining shakllanishi o'z tarixiga ega. Hozirgi davr tushunchasidagi inson huquqlari kontseptsiyasi Yevropada Uyg'onish va Reformatsiya davrlarida boshlangan deb hisoblanadi. 1215 yili Angliyada Buyuk erkinliklar xartiyasi qabul qilingan. Ushbu hujjatda soliq solish, sud ishlari, diniy huquqlar, mulk huquqi, vasiylik va boshqa masalalarni tartibga soladigan 63 modda bo'lgan. Deklaratsiyaga erkinlik, mulkchilik, xavfsizlik va kamsitishga qarshilik inko'rsatish kabi huquqlar kiritilgan. Inson huquqlari sifatida shuningdek fikr va mulohazalarni, shu jumladan, diniy masalalar bo'yicha ham erkin ifodalash huquqlari ham tan olingan. Barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi printsiplari e'lon qilingan.

Hozirda esa Davlatimizning bosh qomusi – yurtimizni demokratik yo`ldan rivojlantirishning huquqiy kafolati hisoblanadi. Inson huquqlari esa – demokratik jamiyatning umume’tirof etgan prinsiplaridan biridir. Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan insonparvarlik g’oyalari o`tmishdagi davlatchiligimiz taraqqiyotida ham o`z aksini topganini yuqorida aytib o`tdik. Konstitutsiya –atamasining ma’nosiga e’tiborni qaratadigan bo`lsak tuzish, tuzuk, nizom, tuzilish, yaratish degan ma’nolarni anglatadi. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti shundan xabar beradiki, qayerdagi demokratiya

ildiz o'tsa, o'sha joyda inson huquqlari kafolatlanadi va fuqarolarning tengligi masalasi alohida qayd etiladi. Inson huquqlari insonning dunyoga kelishi bilan bog'liq.

1992 yilda, mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan va o'tgan davrlarning ko'plab mafkuraviy talablarini o'zida mujassam etgan amaldagi O'zbekiston Konstitutsiyasini jamiyat taraqqiyotining zamonaviy qarashlariga mos ravishda yangilashga ehtiyoj sezilayotgandi.

Qonunchilikka ko'ra, Konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritish mamlakat parlamenti orqali ham amalga oshirilishi mumkin edi. Biroq Prezident Shavkat Mirziyoyev aql, uzoqni ko'ra bilgan siyosatchi bo'lgani tufayli umumxalq referendumini o'tkazish tashabbusini ilgari surdi. Bu, o'z navbatida, O'zbekiston xalqiga umumxalq muhokamasida ishtirok etib, konstitutsiyaviy islohotlar bo'yicha o'z fikrini bildirish imkoniyatini berdi.

Konstitutsiya davlat boshqaruvi tizimini markazsizlashtirish, hududlarning mustaqilligini oshirish, jumladan, ichki va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish sohasida ham mustahkam huquqiy asos yaratadi. Yangi O'zbekistonning barpo etilishida hal qiluvchi omillardan biri uning dunyoga ochiqligidir. Keyingi yillarda mamlakatning yangilangan tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish borasida salmoqli ishlar qilindi.

Ayni paytda mintaqada va butun dunyoda vaziyat tez o'zgarimoqda, bu esa O'zbekiston tashqi siyosatini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Mintaqadagi mavjud ijobiy tendensiyalarni, Markaziy Osiyoda o'zaro ishonchni mustahkamlash va hamkorlikning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu boradagi asosiy vazifa mintaqani xavfsiz, barqaror rivojlanish, yaxshi qo'shniçilik va o'zaro manfaatli hamkorlik xududiga aylantirishdan iborat.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritish taklif etilayotgan o'zgartishlar Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning



borishini o'zida aks ettiradi, shuningdek, ular islohotlarning yangi yo'nalishlari mustahkamlanishini ham nazarda tutadi.

O'zgartishlarda asosiy e'tibor "inson huquqlari", "ijtimoiy siyosat" va "fuqarolik jamiyati" kabi tushunchalarni huquqiy tomondan yanada mustahkamlash hamda O'zbekiston yetakchisining islohotchilik siyosatini davom ettirishga qaratilgan, deb o'ylayman. Ishonchim komilki, bu islohotlar O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijini yanada mustahkamlash, mamlakat ichkarisida insonning huquq va erkinliklari kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Inson huquqlari tushunchasi bizning zaminimizda asrlar davomida yashab kelayotgan qadriyatligini hisobga olgan holda va hozirgi rivojlanib borayotgan huquq tizimida inson qadrini yuksak darajada e'zozlanishi davlatimizning yutuqlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek Bugun xalqimiz, xalqaro hamjamiyat "Yangi O'zbekistonga - yangilangan Konstitutsiya" lozimligini e'tirof etmoqda. Zero, har qanday islohot kuchli konstitutsiyaviy-huquqiy asosga tayansagina, ko'zlangan ezgu maqsadga va ulug'vor vazifalarga, samarali natijalarga erishadi. Huquqiy soha rivoji islohotlar shiddatidan ortda qolsa - bu jamiyat va davlat inqiroziga olib kelishi mumkinligini jahon davlatlari tarixidan ham ko'rishimiz mumkin.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda inson qadri ulug'lanadigan Yangi O'zbekiston g'oyasi - butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olib, uni hayotga tatbiq etish umummilliy harakatga aylanib ulgurdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T. 2021.
2. Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston: demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" Toshkent-2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. PF- 60-sonli Farmoni.

4. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi – 1948 yil 10 dekabr.

5. Muminov Abdulxay Rashidovich, Tillabaev Mirzatillo Alisherovich Inson huquqlari: darslik /Muminov A.R., Tillabaev M.A. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. - 2-nashr. –T.: “Adolat” nashriyoti, 2013. – 402 bet.

6. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.

7. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.



**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI, VOYAGA YETMAGAN O'SMIRLAR
ORASIDA ZO'RAVONLIK VA SHU KABI XOLAT, ULARNI OLDINI OLISH
CHORA-TADBIRLARI.**

Zokirova Irodaxon Odilovna

Chilonzor tumani 200-IDUMning kasb-hunarga yo'naltiruvchi psixologi,

Xasanova Muhabbat Xasanovna

Chilonzor tumani 200-IDUMning amaliyotchi psixologi,

Usmonova Nozima Aziz qizi

Chilonzor tumani 217-maktabning psixologi.

Maktab ta'limining birinchi kundan boshlab kichik maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch bo'lgan asosiy qarama – qarshilik yuzaga keladi. Bu qarama – qarshilik bola shaxsiga, uning diqqati, xotirasi, tafakkuriga nisbatan o'quv ishlari, o'qituvchilar hamda jamoa tomonidan qo'yilayotgan va doimo orttirib borayotgan talablar bilan o'quvchining mavjud psixik rivojlanish darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Undan tashqari "Bulling" deb ataluvchi xolatlar. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab, o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi.

Kirish: Bulling- "ta'qib va zo'ravonlik" ma'nosini bildirib, kollektivdagi zaiflarni (qurbonlar yosh yoki katta bo'lishi mumkin!) qasddan va muntazam ta'qib qilishdir. Bullingning psixologik, jismoniy, ochiq yoki ko'rinmas shakllari mavjud. Ta'qib deganda, odatda, tahqirlash, ustidan kulish, ataylab e'tibor bermaslik, kam-sitish va kaltaklash tushuniladi. Ko'p hollarda bulling bir martalik hodisa emas. Faqatgina «g'alati» yoki «zaif» bo'lganlarga emas, har qanday bola bulling qurboni bo'lishi mumkin. Odatda, ta'qibning sababi – sinfdoshlar orasida hukmronlik qilishga intilish. Hozir bulling butun dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ham dolzarb masalalardan biriga aylangan. BMT tadqiqotida aytilishicha, yoshlarning uchdan ikki qismi maktabda ta'qibga uchraydi. Ko'p hollarda bolalar maktabdagi nizolarni kattalardan berkitadi. Har uchinchi bola o'zi ham ta'qibda bir necha bor ishtirok etgan.

O'zbekistonda xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov birinchilardan bo'lib bu muammo haqida ochiq gaplashishni taklif qilgan. Bulling nimasi bilan xavfli: har qanday zo'ravonlik va ta'qib qurbonning ruhiyatiga zarar yetkazadi. Tadqiqotga ko'ra, ta'qibga uchragan bolalarning sog'lig'i, xususan ruhiy sog'lig'i ham yomonlashadi. Yoshlar yolg'izlanib, ularda tushkunlik va ojizlik, vahima hissi shakllanadi. Ba'zilar o'z joniga qasd qiladi. Lekin zo'ravonlar ham xavf ostida ekan: ular o'z tengdoshlariga qaraganda alkohol va narkotik qaramligiga muhtalo bo'lar ekan. Zo'ravonlar ham

tushkunlik va suitsid vasvasasiga tushishga moyilroqdir. Zaman shiddat bilan rivojlanib bormoqda, bulling holva, hozir kiberbulling paydo bo'lgan: kiberbulling bullingning o'zginasi, faqat endi ta'qib internetda, «Telegram», «Instagram» «Facebook», «Odnoklassniki» kabi ijtimoiy tarmoqlar va bloglarda, hatto telefon va SMS orqali amalga oshiriladi.

Kiberbullerlar qurbonini 24 soat ta'qib qilishi mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Bullingdan qanday himoyalaniish mumkin?

Bullingni to'liq yo'q qilish imkonsiz, bu jamiyatda doimo u yoki bu shaklda davom etaveradigan hodisa. Bullingdan to'liq himoyalaniish imkonsiz bo'lsa-da, quyidagi maslahatlar undan saboq chiqarib, kuchliroq inson sifatida shakllanishga yordam berishi mumkin:

- Ijobiy psixologiyani o'zingiz o'rganing va farzandingizga o'rgating. Ijobiy psixologiya insondagi patologiya va muammolarni emas, ko'proq insonlarning nekbinligi va bardoshlilikini qanday saqlab qolishini o'rganadigan fandır.

- Bolaga u yoki bu hodisaga o'z munosabatini shakllantirishga ko'maklashing. Har qanday insonni yoshlikdan uch narsa shakllantiradi: genotipi, atrof-muhit va insonning hodisaga ichki munosabati. Mana shu ichki yondashuv hayotda eng muhim va hal etuvchidir. Agar bolada o'zining ichki munosabati shakllanmagan bo'lsa, uning bulling qurboni yoki agressorga aylanib ketishi yengil kechadi.

- Bolaga shukur va sabr qilishni o'rgating.

- Bolaga o'z qadr-qimmatini atrofda gilarining o'lchami bilan emas, o'zining ichki o'lchami bilan o'lchashni o'rgating. O'qituvchisi yoki ota-onasi uchungina «besh»ga o'qiydigan bola odatda faqatgina yodlash bilan kun kechiradi.

- Ota-onalar doimo bullingga qarshi chora ko'rishi kerak, ayniqsa bulling og'ir yoki doimiy tus olayotgan bo'lsa. Bulling o'zidan o'zi o'tib ketmaydi. Maktab direktori yoki bolaning o'qituvchisi bilan gaplashing.

- Fikringizni bildirishdan qo'rqmang. Agar o'zingiz yoki do'stingizning xavfsizligidan xavotirda bo'lsangiz, darhol o'zingiz uchun ishonchli odam bilan gaplashing - bu ota-ona, o'qituvchi, yaqin do'st, opa-singil yoki bolalar uchun ishonch telefoni bo'lishi mumkin, ishonch telefoni ko'pincha anonim bo'ladi.

- Munozara boshlang. Muhokamani boshlash va bolalarga zo'ravonlikka/bullingga qarshi kurashish uchun o'z g'oyalarini ishlab chiqish uchun joy berish maqsadida o'z ijodkorligingiz va multimediya vositalaridan foydalaning

- Bullingni rad etadigan va zo'ravonliksiz nizolarni hal qilishga yordam beradigan munosabatlarni tarbiyalang. O'quvchilarning yordami bilan o'z sinfingizda xatti-harakatlar, hulq uchun me'yorlarni belgilang. Nizolarni hal qilish va g'azabni

boshqarish ko'nikmalarini o'rganing va o'rgating. O'quvchilaringizga ushbu ko'nikmalarni kundalik hayotda qo'llashda yordam bering.

Xulosa: Voyaga yetmaganlaga jinoyatchiligi quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- Yoshlar orasidagi jinoyatchilik asosan guruhiy xususiyatga ega bo'lib, jinoyatchi qanchalik yosh bo'lsa, u jinoyatni shunchalik kam hollarda yolg'iz sodir etadi;

- Yoshlar jinoyatchiligi ijtimoiy nazoratning holati bilan chambarchas bog'liq;

- Yoshlar orasidagi jinoyatchilik ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarga juda ta'sirchandir. Yoshlarning shaxsi muhitning ham ijobiy, ham salbiy ta'siriga oson uchraydi. Mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlarning salbiy oqibatlari yoshlar orasida jinoyatchilikning keskin ko'payishini, uning uyushgan, qurollangan, shafqatsiz bo'lishini, yoshlarning umumiy jinoyatlari orasida mast va narkotik moddalar ta'sirida sodir etilgan jinoyatlar ulushining ko'payishini, jinoyatlar ishtirokchilari orasida ish va o'qish bilan band bo'lmaganlar hissasining ko'payishini keltirib chiqardi. Bu esa yoshlar orasida, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarni va ularning jinoyatchilik holatiga ta'sirini o'rganishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // www.press-service.uz.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

3. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 2021 y.

4. <http://www.parliament.am/legislation.php>.

5. <http://www.wipo.int/wipolex/ru/text>.



**YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI KASB TANLASHGA
KO'MAKLASHISH VA ULARNI KASBGA YO'NALTIRISH.**

Zokirova Irodaxon Odilovna

Chilonzor tumani 200-IDUMning kasb-hunarga yo'naltiruvchi psixologi,

Xasanova Muhabbat Xasanovna

Chilonzor tumani 200-IDUMning amaliyotchi psixologi,

Usmonova Nozima Aziz qizi

Chilonzor tumani 217-maktabning psixologi.

Maqolada yuqori sinf, shu jumladan 11-sinf o'quvchi-yoshlarni o'z qobiliyati, qiziqishlari, imkoniyatlari va ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda ongli ravishda kasb tanlashga ko'maklashish va ularni tanlagan kasblari bo'yicha yo'naltirish, kasbga yo'naltirish vazifalarini amalga oshirish bilan o'quvchilarning umummehnat va kasbiy tayyorgarligi o'rtasida uzviy aloqadorlikni ta'minlash, rivojlanayotgan shaxsning yaqin kelajakda ma'lum bir kasbga yoki faoliyatga

yo'nalganligini ta'min etuvchi muhim individual-psixofiziologik va psixologik xususiyatlari majmuasi uning kasbiy muvofiqligini tashkil etish kabi fikr-mulohazalar taqdim etilgan.

Kirish: Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar, shakllanayotgan madaniy bozor munosabatlari, ishlab chiqarishning keskin rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiyoti qizg'in kechayotgan davrda jamiyat va shaxs ehtiyojlarining uzviy mutanosibligiga erishish yoki uni ta'minlash oson ish emasligini tasdiqlamoqda. Chunki hamisha ham yoshlar o'z iqtidori, salohiyati, aqliy va intellektual potensialiga mos va jamiyat uchun manfaat keltiruvchi kasblarni tanlay olmaydilar. Bu qarama - qarshilikni bartaraf etish uchun yoshlarda kasb tanlashning ijobiy (pozitiv) motivlarini shakllantirishda jamiyat va jamoatchilik ta'sirini kuchaytirish o'ta muhim ahamiyatga ega. Bu hayotiy dolzarb vazifa yoki muammoni hal etishda albatta oila va maktab, mahalla va jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari hamda boshqa tuzilmalar yaxlit tizim sifatida bir maqsad atrofida uyushishlari lozim bo'lmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida kasb-hunarga yo'naltirish har bir o'quvchiga o'zligini anglash va betakror o'ziga xosligi asosida ham hayotiy ham kasbiy istiqbolini belgilashda yordam beradi. Kasbga yo'naltirish jarayoniga amaliy – psixologik texnologiyalarni tatbiq etish bilan shaxsning kasbiy o'zligini anglashi va kasbiy istiqbol rejasini belgilashi uchun bevosita ijtimoiy-psixologik sharoit yaratiladi. Bu – faoliyat samaradorligini oshirishning zarur omillaridan biri hisoblanadi. Shaxs (o'quvchilar)ning biror bir faoliyat turini tanlayotganda, dastlab bilishi lozim bo'lgan narsa nima sababdan u aynan shu kasbni tanlayotganligi va aynan qaysi korxonaga yoki

firmada ishlashni istayotganligini bilishdir. Bu masala psixologiyada motivlar va kasbiy motivatsiya hodisasi bilan bog'liq. Professional mahorat va kasb motivatsiyasi haqida gap ketganda ularga

ta'sir etuvchi ikki guruh omillar nazarda tutiladi: ob'ektiv hamda sub'ektiv.

Ob'ektiv omillar – bu inson faoliyatiga bevosita aloqador bo'lgan, shu faoliyat talab qiladigan tamoyillar, normalar va cheklovlar hamda inson tomonidan talab etiladigan professional bilimlar, malaka va ko'nikmalar, professional muhim sifatlardir. Bu omillarga yana ishlab chiqarish sharoitlarining o'zi, ularning qanchalik yangi davr talablariga binoan modernizatsiya qilinganligi rol o'ynaydi. **Sub'ektiv omillar** – insonda avvaldan mavjud bo'lgan layoqat, qobiliyat, mehnatga nisbatan motivatsiya, ish faoliyatdagi da'vogarlik darajasi, o'ziga nisbatan shakllangan baho va turli xil xato va kamchiliklardan o'zini-o'zi psixologik jihatdan himoya qilish qobiliyatidir. Bu omillar guruhi ham juda ahamiyatli bo'lib, ular ko'proq tashqi omillardan ko'ra insonning o'ziga bog'liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Yosh avlodni o'z kelajagini tanlash va uni barpo etishida albatta axborotlarni tahlil qilish ko'nikmasi kerak. Ushbu ko'nikma o'quvchilarning kasb tasnifi, uning asosiy turkumlariga xos umumiy xususiyatlarni bilishi, kasblarning murakkablik omillarini taxlil qila olishi bilan baholanadi;

-Gnostik ko'nikmalar. U kasbi bo'yicha talab qilinadigan shart-sharoitlar bilan o'quvchining qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlarining

o'zaro muvofiqligini aniqlash asosida baholanadi;

-Konstruktiv ko'nikmalar. O'quvchi tomonidan kasbga doir shaxsiy rejaning mazmuni, bo'limlari va vazifasining asoslanishi, kasbga tayyorgarlik va kasb mahoratini oshirish usullarini egallaganligi.

-Tashkiliy ko'nikmalar. Kasbga moslashtirish va kasbga xos bilimlarni, malakalarni egallash hamda diagnostik kasb maslahatidan foydalanishni, maktab o'quvchilariga bo'lgan talablarni, ularning bir-biridan farqini bilishi. Kasb-hunar tanlashda adashmaslik uchun o'quvchilar quyidagilarni bilishi va uddalashi kerak:

A) mehnat va kasb turlariga bo'lgan o'z moyilligi, qiziqish va layoqat;

B) Kasb-hunar bo'yicha mehnat sharoiti va mazmuni (predmeti, maqsadi, mehnat quroli, ishchining asosiy vazifalarini, bilimni, ko'nikmalarni, mehnat tashkillashtirish;

V) Insonning shaxsiy xislat-lari va sog'ligiga kasb tomonidan qo'yiladigan talablarni;

G) Tanlagan kasb-hunar bo'yicha ishlash mumkin bo'lgan eng yaqin korxonalar

to'g'risidagi ma'lumotlarni, to'garaklarda ishtirok etish jarayonida o'z qiziqish va tamoyillarni amaliyotda sinash va hokazolar.

XULOSA: Keltirib o'tilgan fikr-mulohazalardan xulosa shundan iboratki, rivojlana-yotgan shaxsning yaqin kelajakda ma'lum bir kasbga yoki faoliyatga yo'nalganligini ta'min etuvchi muhim individual-psixofiziologik va psixologik xususiyatlari majmuasi uning kasbiy muvofiqligini tashkil etadi. Yoshlarning o'z kasbini tanlash kabi xislatlarini chuqur tushungan holda faol izlanib, bo'lajak kasbu-korni to'g'ri tanlashlariga imkon beruvchi ichki bir anglanilgan salohiyat majmuasi esa kasb tanlashga tayyorlik darajasini belgilab beruvchi omil sanaladi. Shaxsning kasbiy shakllanishida kasbiy yo'nalganlik va kasb tanlashga tayyorlik xislatlari birgalikda, bir butun holda rivojlanib, bir-birini taqozo etgan holda takomillashib borishi, bizningcha, yana muhim sifat, ushbu kasbiy ustanovkalar barqarorligini ta'minlashdir. Bunda bolani o'rab turgan atrof-muhit, u tarbiyalanayotgan muhitdagi shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning roli kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SHaripov SH. S., Davlatov K., Nasriddinova G. S. KASBGA YO'NALTIRISH-NING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI O'QUV QO'LLANMA Toshkent – 2007. 97-150 b.
2. Melibaeva, R. (2020). O dialekticheskom xaraktere protsessa stanovleniya lichnosti studenta.
3. Normetova, Yu. (2015). Izuchenie sotsialno-psixologicheskix podxodov k problemam zdorovya i bolezni. In Ot istokov k sovremennosti (pp. 304-306).
4. Xolyigitova, N. X. (2019). Ijtimoiy psixologiyada o'quv faoliyati motivatsiyasining rivojlanish omillari (ilmiy adabiyotlar tahlili). Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (11 (84)), 20-25.
5. Xolyigitova, N. (2014). Innovatsion texnologiyalar–ta'lim va tarbiya jarayonlarining sifat va samaradorligi omili sifatida. Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (1), 22-25.

The problems in teaching young learners.

**Bakhromova Zarina Ali qizi and
Saitmurodova Nozima Olim qizi**

**3st year students at Djizzakh branch of The National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek**

Supervisor: Quvondiqova Dildora Ali qizi

**Assistant teacher in the department Foreign Languages at Djizzakh
branch of The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek**

ANNOTATION

This article gives information about the problems in teaching young learners.

The aim of the article is to illuminate the problems of teaching young learners. The topicality directs as to carry the tasks in the paper. In order to achieve the goal of this project we set up several tasks: Understanding the different learning challenges amongst early students, Major challenges faced by teachers in teaching at schools, Effective methods to use in teaching teenagers.

Understanding the different learning challenges amongst early students

Difficulties are often an unavoidable but important part of the learning process. This seems particularly so for complex conceptual learning. Challenges in the learning process are however, particularly difficult to detect and respond to in educational environments where growing class sizes and the increased use of digital technologies mean that teachers are unable to provide nuanced and personalized feedback and support to help students overcome their difficulties.

Major challenges faced by teachers in teaching at schools

Teaching is an amazing career. It's rewarding to make a difference when you're young. But it's also a career with challenges that many are unaware of. While the challenges outweigh the challenges, it is still important to understand the role of teachers and the challenges they overcome.

TYPES OF PROBLEMS:

1. Understanding Students. **Solution:** One way she gets to know her students is by making time to talk to them in and out of class.

2. Personalized learning. **Solution:** Here are some quick tips to get you started.

Set personal learning goals. Once you have a good understanding of your student's needs, you can start creating learning goals that are unique to each student. These goals should be challenging but achievable and should be aligned with government educational standards.

3. Time Management. **Solution:** Set a schedule and stick to it. A good schedule helps you stay on track and use your time wisely. Take your time with each task and try to stick to it as much as possible.

Effective methods to use in teaching teenagers

Let's face it teaching teenagers can be difficult. They frequently defy laws and authority figures and enjoy pushing the limits of what is acceptable. Teenagers are energized, creative, and eager to express themselves at the same time. In addition to navigating and managing the more challenging facets of their students' personalities, middle- and high-school teachers must find productive ways to channel this energy.

1. Make your rules and expectations very clear. Introduce your policies and expectations to the class on the first day. Now is the time to let your students know if you require that all assignments be turned in on time or that late submissions will result in a deduction of ten points. Give examples of the penalties for breaking the law.

2. Invite your students to assist you in lesson planning. Teenagers prize autonomy and flexibility. They want more control over their lives as they teeter on the brink of adulthood. Asking for their input on your lesson plan will show that you respect their increasing maturity.

REFERENCES

1. Parmonova, N. (2022). Nasiba THE PHENOMENON OF CONVERSION IN ENGLISH: THE PHENOMENON OF CONVERSION IN ENGLISH. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(4).

Rachel Mitchell's book "IELTS reading strategies: the ultimate guide with tips and tricks on how to get a target band score on 8+ in 10 minutes a day"

2. Kuznetsova S. The use of the project methods at the lessons of English. – 2014 – pp.12 – 13. – Text: electronic. – URL: <https://nsportal.ru/shkola/inostrannyeyazyki/>

[angliiskiy-yazyk/library/2014/02/22/statya-metod-proektov-v-obuchenii](https://nsportal.ru/shkola/inostrannyeyazyki/angliiskiy-yazyk/library/2014/02/22/statya-metod-proektov-v-obuchenii)

3. Lectures on the Theory and methodology of teaching a foreign language Text: electronic. – URL: <https://infourok.ru/lekcii-po-teorii-i-metodike-obucheniainostrannomu-yaziku-481575.html>

4. Methods of teaching English language (2.2.3 Using project method in teaching a foreign language) – Text: electronic. – URL: https://knowledge.allbest.ru/languages/2c0b65635b3bd79a5d43a88521306d37_0.html

5. Methods of teaching foreign languages as a scientific field – Text: electronic. – URL:

https://studme.org/167135/pedagogika/metodika_obucheniya_inostrannym_yazykam_nauchnaya_oblast



ALTERNATIVE METHOD FOR THE TREATMENT OF SCID

From: Joseph Helen

Supervisor: DR. Muslimbek Asadullayevich

**THE DEPARTMENT OF MEDICAL BIOLOGY AND GENETICS
SAMARKAND STATE MEDICAL UNIVERSITY**

Annotation: Severe combined immunodeficiency (SCID), also known as "bubble boy disease," is a rare hereditary pathology wherein patients lack an immune system. The most common form is X-linked SCID, caused by genetic mutations of IL2RG, which is needed for the development of immune cells - T and B lymphocytes.

Key words: SCID, bubble boy disease, T and B lymphocytes.

